

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILI YO`NALISHI
4-KURS 401-GURUH TALABASI**

BOYDADAYEVA MUKARRAM

SHOKIRJON QIZINING

bakalavr darajasini olish uchun

**OG`ZAKI VA YOZMA NUTQ
XUSUSIYATLARI**

mavzuidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

Kat.O`qituvchi A.Amanov

Namangan - 2016

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-12
I. BOB: SO`Z XOSIYATI VA NUTQ MOHIYATI.....	13-18
1.1.Og`zaki va yozma nutq imkoniyatlari.....	18-19
1.2. Og`zaki nutqqa shevaning ta`siri.....	19-21
 II. BOB.SO`Z, NUTQ VOSITASIDA YAKKA SHAXS YOKI JAMOA BILAN MUOMALADA BO`LISHGA ASOSLANGAN YONDOSH SOHALAR	 21-24
2.1.Suxandonlik.....	25-27
2.2.Qissaxonlik	27-32
2.3. Dabirlik va kotiblik.....	32-34
 III.BOB. NUTQIY MAHORAT	 34-38
3.1.Nutqning aniqligi –fikrning tiniqligi.....	38-40
3.2. Chin so`z motabar –yaxshi so`z muxtasar.....	41-50
 UMUMIY XULOSALAR.....	 50-56
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	 56-58

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'tgan yillar tom ma'noda rivojlanish va yuksalish yillari bo'ldi. Bu hayotimizning har bir jabhasida ko'zga tashlanib turibdi. Xalqning qaddini tiklash uchun birinchi navbatda uning qadriyatlarini tiklash zarur. Muhtaram prezidentimiz rahbarliklarida ulkan islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. U kishi o'zlikni anglash tarixdan boshlanishini¹ shuning uchun xalqimizning o'zigagina xos bo'lgan mentalitetni, qadriyat va boshqa xalqlarda uchramaydigan ijobiy jihatlarni o'zida aks ettiruvchi har qanday merosni ko'z qorachig'day asrash kerakligini² qayta-qayta uqtiradilar.

Ona tili-millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat, o'zligidan jido bo'lishi muqarrar. Har bir millat umumiy madaniyat daryosiga o'z jilg'alarini quya borib, umumjahon oqimiga yondashadi va undan nimadir unga tuhfa etadi. Mana shunday madaniy aloqalarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi muhim vositalardan biri tildir.

Notiqlik uzoq, tarixiy jarayonni bosib o'tgan, ayni paytda yondosh san'atlarning rivojiga samarali ta'sir o'tkaza olgan, o'z turlari, shakl va uslublariga ega bo'lgan, har xil g'oya va maslamlarning ifoda tarziga aylangan so'z, nutq san'atidir. Mashriq mag'ribda mashhur bo'lgan notiqning aksariyati amaliyotchi hamda nazariyotchi bo'lganligi bu san'atning taraqqiy etishiga omil bo'lgan.

So'z va nutq vositasida yakka shaxs yoki jamoa bilan munosabatda bo'lishga qaratilgan kasb egalari —notiq, muxbir, sharhlovchi, huquqshunos, advokat, o'qituvchi, ma'ruzachilar uchun nutqiy omillarni puxta bilish, amalda qo'llay olish keng imkoniyatlar yaratadi.

Nutq madaniyatining uzviy qismi og'zaki nutqning kulminatsion nuqtasida ijodiy va ijroviy faoliyatning hosilasi sifatida yuzaga kelgan notiqlikning ijtimoiy

hayotdagi o'zni beqiyos bo'lgan. Ayniqsa, uning siyosiy, huquqiy, harbiy, diniy, sud notiqligi kabi ko'rinishlari ijtimoiy tuzumga, idora usuliga ham o'z ta'sirini o'tkazganligi rost. Boshqaruv tizimida xonalar amirlarning vazifasi qanchalik muhim bo'lgani singari omma orasida tushuntirish va targ'ibot ishlarini amalga oshirishda ularning roli ham shunchalik zarur va ahamiyatli bo'lgan.

Notiqqa xos bo'lgan talablarning ro'yobini nutqqa xos xususiyatlarni to'la o'zlashtirmasdan turib anglash mushkul.

Nutqiy faoliyat, nutqiy ko'nikma, nutqiy malaka ana shularni taqazo etadiki, nutqiy madaniyat va nutqiy texnikani to'la egallamasdan notiqik sharafiga erishish mumkin emas. Ikir-chikirdan muhim fikrga o'ta bilish, lo'nda ibora, ta'sirchanlik va ehtiros, jo'shqinlik, o'zidagi hissiyotni o'zgaga o'tkaza bilish, kuzatuvchanlik, ziyraklik, omma e'tiborini bir maromda ushlab turish, vaziyatga mos va xos so'z topa bilish kabi talablar notiq nutqini muzayyan etadi.

Har qanday go'zal, jimjimador, lekin mantiqdan xoli bo'lgan nutqning mohiyati bo'lmaydi. Chunki, nutqning qudrati va ta'siri ham aslida uning mantiqi bilan belgilanadi. Notiq nutqining mantiqiy qudratini ta'min etuvchi omillar nutq sohibining bilimi, saviyasi, dunyoqarashi, tajribasi, malakasi bilan uyg'unlashadi. O'tmishda o'z vazifasini o'tab kelgan, turli g'oya va maslaklarga xizmat qilgan notiqlik san'ati bugun ham, kelajakda ham ahamiyatini yuqotmaydi. Insoniyatda anglash va anglatishga ehtiyoj bor ekanki, u yashayveradi. Faqat uni ongli ravishda, ezgulik, bunyodkor g'oyalarni tashviq etishga safarbar etish zarur. Endilikda uning o'tkir «nazar»ini milliy istiqlol g'oyasining hayotbaxsh mohiyatini keng ommaga tushuntirishga qaratish lozim.

Nutqning mantiqiy bo'lishi bu faqat til hodisasi emas, balki tafakkur dialektikasi bilan ham bog'liqdir. Mantiqiy fikr yuritish uchun esa, keng qamrovli bilim ham kerak. Shuning uchun ham, N.G.Chernishevskiy «nimani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish

fikrlar chigalligidan dalolatdir», — deyishi bilan haq edi. So'ylab turib o'ylash, fikr yuritish va uni yetkazish o'qituvchi nutqining muhim omillaridandir. So'z birikmalari o'rtasidagi grammatik aloqani his etmasdan aytishlik eshituvchiga malol keladi va mantiqni buzadi.

Ba'zi hollarda notiqlar muloqot mavzuini chuqur bilmasdan, fikr ifodalashda qiynaladilar va odatga aylangan ushbu so'zlarni ishlatadilar. Ms: «Xo'sh, haligi, anaqa, o'sha, nimaydi, deylik, demakkim» va h.k.

Bular tilshunoslikda «parazit so'zlar» deyiladi. Nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi bunday so'zlarni qo'llamaslik uchun mavzuni sinchiklab o'rganish va nutqiy mashqlar qilish lozim. Nutq tozaligiga salbiy ta'sir etuvchi holatlardan biri vulgar(qo'pol) so'zlarni istifoda etishdir. Qarg'ish, haqorat ma'nolarini anglatuvchi bunday so'zlar oynai jahon orqali namoyish etiluvchi badiiy film va spektakllarda qahramon qiyofasini, sajiyasini, ruhiy holatini ochishda ba'zan qo'llaniladi. Allomalardan biri «tilning tozaligi, ma'no aniqligi va o'tkirligi uchun kurash madaniyat quroli uchun kurashishdir. Bu qurol qanchalik o'tkir, qanchalik aniq yo'naltirilgan bo'lsa, shunchalik g'olib bo'ladi», — degan. Nutq tozaligiga erishish uchun notiq og'zaki nutq madaniyati va nutq texnikasini yaxshi bilishi va unga amal qilishi zarur bo'lgani holda o'z nutqini nazorat qilib, o'zgalar nutqi bilan solishtirib borishi kerak.

BMI ning maqsad va vazifalari. Og'zaki va yozma nutqning o'zaro bog'liqligi ularning shakllanish jarayonidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida ham muhimdir. Davraga chiquvchi notiq demoqchi bo'lgan maqsadini to'la bo'lmasa-da, xomaki tarhini qogozga tushirib rejalalashtiradi. Nimadan nimaga o'tish, qancha to'xtalish, nimalarni aytish yoki aytmaslik haqidagi chizgilar notiq, so'zlayotgan paytda ham uning ko'z oldida xuddi qog'ozdagidek xayoliy suvrati namoyon bo'lib turadi. Aks holda nutq me'yori buzilib, vaqt cho'zilib ketishi, auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin. Qo'pol aytganda, notiq o'zining fikr tizginini jilovlay olmasdan talmovsirab qolishi mumkin. Yuqorida keltirilgan ihtibosning davomida xuddi shunday ibratomuz

fikrlarni o'qiyamiz: «Notiqning fikru o'ylari, qalb kechinmalari yozma nutq jarayonida rosa ishlanadi, pishib mumtoz darajaga yetadi. So'ng og'zaki nutqda jamol ko'rsatadi. Og'zaki nutq ham ijod jarayoni. Unda inson favqulodda noyob fikr, g'oyalarni, badiiy ifodalarni kashf etadi. Ularni so'zlab yurib, pishitib sayqal toptiradi va qiyomini quyma qilib yozma nutqida terib yozadi».

Og'zaki nutqning qator vazifaviy ko'rinishlari mavjudki, ular kezi kelganda, yozma nutqqa jilo beradi. Uning ta'sirchanligini oshiradi. Kundalik so'zlashuv nutqi, ma'ruzachilar nutqi, radio va ommaviy axborot nutqi, sahna nutqi bularning har biri alohida tadqiqotni talab etadi. Biz keyingi boblarda ularning ayrimlariga imkon qadar to'xtalib, og'zaki va yozma nutqning boshqa xususiyatlari haqida ham mulohazalar bildiramiz.

BMIning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili. Voizlik qadimiy san'atlardan biri bo'lib, va'z (pand, nasihat, o'git), voiz (pand-nasihat qiluvchi) atamalarini o'z ichiga oladi. Voizlik haqida ko'pgina manbalarda so'z yuritilgan. Ba'zi tadqiqotchilar bu san'atni notiqlikning bir turi sifatida talqin etsalar, ba'zilar esa uni notiqlik bilan teng qo'llaydilar. Bir jihatdan qaraganda, har ikkalasi ham to'gridek ko'rinadi. Lekin chuqurroq nazar tashlansa, ular o'zaro uzviy chambarchas bog'langan, yakka holda anglash mushkul. Mohiyat e'tibori bilan esa alohida san'atlar ekani ham ayon bo'ladi. Notiqlik qo'llanish o'rni, mavzu doirasi va ma'no qamrovi jihatidan bir muncha keng. Voizlik ham nutqiy mahorat orqali o'z ro'yobini ko'rsatadi. Unda diniy, didaktik va hayotiy mazmun ustuvorlik qilgan, notiqlik dunyoviylik bilan hamma davr va makonlarda har xil g'oya va maslaklarga xizmat qilgan. Nutqni yozma ravishda bayon etish qadimdan qo'llanib kelingan. Munshiylar, kotiblar va allomalar bu san'atni yuqori darajaga ko'targanlar. Yo'zma va og'zaki nutqning jilosi tafakkur mashqlaridir. Shu haqda so'z yuritib, adabiyotshunos olim Nusratillo Atoulloh o'g'li Jumaxo'ja yozadi: «yozma nutq bilan shug'ullanmagan notiq nutqining rivoji sust, sayqal topishi qiyin kechadi. Uning so'z boyligi, ifoda imkoniyatlari cheklangan bo'ladi».

Malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Har bir tilning go'zalligi, jarangi, boyligi va ohangi boshlovchi nutqida aks etadi. Tinglovchi uning nutqi orqali o'z ona tili bilan g'ururlanadi. Uning nutqiga qarab adabiy tilning talaffuz normalari belgilanadi. Sheva unsurlarini qorishtirish, ayrim tovushlarni yamlash, so'zlarni chaynash kabi qusurlardan xoli bo'lgan nutq go'zal, yoqimli va eshitishlikdir. To'g'ri, hamma ham tiniq va chiroyli talaffuzga ega emas. Lekin nutqiy go'zallikka intilish kerak. Aslida, jarangdor va yoqimli ovoz Olloh ne'mati. Uni asray bilish va keng imkoniyatlaridan (rasmiy, badiiy, ilmiy nutqlarda) foydalana olish mahorat belgisidir. Bularning hammasi tabiiylik mezoni doirasida bo'lishi kerak. Ovozni atay yo'g'onlashtirish, ingichkalashtirish, zo'rma-zo'rakilik tovush paychalarining cho'zilishiga olib kelishi mumkin. To'g'ri, har kim ham ovozni o'zgartirish qobiliyatiga ega emas. Muqallidlik (taqlidchilik) san'atida badiiy mazmundagi matnlarni o'qishda bu usul asqotadi. Lekin tabiiy ovozga nima yetsin. Ba'zilar hatto, tabiiylik va sun'iylikning chegarasini anglamasdan, boshlovchilarga baho berishga intilishadi. Taqlid bilan ta'sirni farqlash kerak. Taqlid chinakam san'atning rivojiga, to'siq. Lekin kishining ovoziga, xatti-harakatiga, tabiat hodisalariga, parranda va darrandalar tovushiga, qilig'iga o'xshatish, taqlid qilish asosiga qurilgan muqallidlik san'atida taqlid tushunchasi ijobiy xususiyat kasb etadi. Shu ma'noda ta'sir, taqlid tushunchalari uyg'unlashib ketadi. Qolaversa, bu tushuncha inson tabiatida o'zi sezmagan holda mavjud. Go'daklik paytida inson ota-onaning yurish-turishiga, so'zlashiga taqlid qiladi. Uningdek bo'lgisi, o'tirgisi, so'zlashgisi keladi. Bu holat keyinchalik bog'cha tarbiyachisi, enagasi, maktab o'qituvchisi, korxona rahbari va hokazolar bilan bog'liq davom etishini bilasiz. XI asrda yashagan Amir Unsurulmaoliy Kaykovusning «Qobusnoma»sida bu san'at tabiati bilan bog'liq muhim mulohazalar ilgari surilgan. Suxandon so'zning o'rnini, tabiatini to'g'ri belgilashi lozim. So'zning to'rt navi borligi, uni qo'llaydiganlar ham to'rt xil bo'lishi ta'kidlab o'tiladi. So'z martabasi kishi bilan emas, kishi martabasi so'z bilan ekani uqtirilib, har bir so'zning ikki yuzi bor: «biri xo'b, biri zisht», — deyiladi. Xo'b—yaxshi, zisht —yomon demakdir.

Buni bilish faqat soʻz ustalariga emas, balki hamma uchun zarurdir.

Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati» kitobining «Suhbat odobi», «Maddohlar va gʻazalxonlar zikrida» nomli qismlarida eʼtiborli mulohazalar ilgari surgan.

Dastavval, «maddoh» soʻzining Koshifiy qoʻllagan va hozirgi maʼnolari tafovuti haqida. «Maddoh» madh etuvchi demakdir. Ahli saltanat, ahli bayt taʼrifida maqtov soʻzlarni aytib yurish ularga xos boʻlgan. «Maddoh hozirda birmuncha salbiy ottenkali maʼnoni ifodalaydi. Bu soʻz hozirda biron narsa ilinjida taʼmagirlik bilan oʻrinsiz mahtovlarni yogʻdiradigan, tengsiz taʼrifu tavsiflar bilan nutq irod etuvchi laganbardorlarni ham eslatadi. Koshifiy madh etishning asoslari va xususiyatlari haqida soʻz yuritib, maddohlarni toʻrt guruhga boʻladi.

BMining obʼyekti va predmeti. Keyingi yillarda tilni funksional tadqiq etishga eʼtiborning kuchayishi natijasida nutqiy kommunikatsiya aloqa-aralashuv jarayoni, uni yuzaga chiqishini taʼmin etuvchi turli vositalar tilshunoslikning asosiy oʻrganish obʼektlaridan biri boʻlib qoladi. Tilshunoslar jonli nutqiy aloqa-aralashuv jarayonini aloqa-aralashuv niqtai-nazaridan tekshira boshladilar. Imo- ishoralar, mimika, gavda harakatlari, ovozdagı turli holatlar aloqa-aralashuvda ishtirok etuvchi qoʻshimcha /yondosh/ vositalar sanaladi va ular aloqa-aralashuvda maʼlum axborotni uzatish, mazmunan toʻldirish, aniqlik kiritish kabi vazifalarni bajarib keladi.

Kishi jonli soʻzlashuv nutqida maʼlum axborotni qisqa va loʻnda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va taʼsirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib, tilga yondosh boʻlgan paralingvistik vositalardan foydalanadi. Aloqa-aralashuvda jarayon lingvistik va paralingvistik yoʻl asosida roʻyobga chiqadi.

Aloqa-aralashuvda xizmat qiluvchi, maʼlum axborotni uzatish vositalaridan boʻlgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar borki, ular ichida til tabiiy,

shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanaladi. Bu esa ishora, mimika, ovozda turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat'iy nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita ekanini bildiradi.

60-yillarda tilshunoslikda paralingvistik yo`nalishdagi asarlar yuzaga keldi va yuqoridagi hodisalar aloqa-aralashuv vositalari deb qaralib, tilshunoslar tomonidan o`rganila boshlandi. Chunki so`zlovchi tomonidan yuborilgan axborotni

tinglovchi to`laligicha qabul qilib olishi uchun fikrni to`ldirib keluvchi, unga yondosh bo`lgan imo-ishora tilini muttasil ravishda o`rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molikdir.

Til nutq, yozuv o`zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og`zaki va yozma nutqning asosiy manbaidir. Ommaviy axborot va maktab ommaga muayyan til, og`zaki nutqning jozibasi, boyligi va nafosatini namoyon etuvchi, yetkazuvchi asosiy vosita va manbalardandir.

Nutqiy mahorat ham amaliy, ham nazariy masaladir.

Ommaviy axborotda nutqiy mahorat nutqiy madaniyatni, nutq texnikasini egallash bilan chegaralanmaydi. Uning to`laqonli chiqishiga xizmat qiluvchi boshqa omillar ham bor. Notiq yoki suxandonning o`zini tutishi, qarashi, yuz-ko`zidagi imo-ishoralari (mimika), soch, yuz, ko`z, lab, bir so`z bilan aytganda, «pardozi-andoz»i, ko`rinishi, qiyinishi ham matn ruhiga muvofiq tushishi kerak. Bularsiz matn mazmunini to`la anglash, anglatish qiyin. Xullas, boshlovchi, o`qituvchining o`ziga va so`ziga e`tibori doimo diqqat markazida turishi kerak. Nutqqa xizmat qiluvchi bu omillarning birontasida yetishmovchilik sezilsa, boshlovchining psixikasiga ta`sir etadi, o`zini o`ng`aysiz sezadi.

«Dunyodagi jamiki narsalar go`zallik qonuniyatlariga asoslanib yaraladi» degan mashhur hikmatni hech istisnosiz boshlovchilik mahoratiga nisbatan ham qo`llash mumkin.

BMI ning ilmiy ahamiyati. Har bir kasb-hunarning o'z xosiyati, mohiyati, talab-taqozolari bo'lganidek, unga amal qiluvchilarning fe'l-atvorlari ham turlicha bo'ladi. Voizlik o'z davrida o'z vazifasini ado eta olgan san'atlardan. Muhammad G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, «Va'z aytishning ma'no-mohiyati — banda oxiratni eslab Alloh huzurida o'zining ongsiz ekanligini sezmogi, o'tgan umrining benaf ishlar bilan hayf ketgani va kelgusida (qiyomatda) nechog'lik mashaqqatlar kutayotganini» anglatishdan iborat. Agar voizlik shu bilan cheklanadi desak, uning vazifasini biroz toraytirgan bo'lamiz. Har davrning o'z g'oyalari va shakllari bo'ladi. Inson kamolotida diniy va dunyoviy ta'limotning o'z ta'siri bo'lar ekan, voizlik ham yangicha ko'rinishda yashashga haqli.

Ma'naviyatli, ma'rifatli jamiyat o'lmas g'oya va shakllardan foydalanib kelgan. Yurtboshimiz ta'biricha, «Ma'naviyat insonga ona suti, ota ibрати va ajdodlar o'giti bilan birga singadi». Demak, voizlik ma'lum g'oya va maslakni so'z va nutq imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish asnosida nasihatimiz tarzda etkazish san'atidir.

Voizlikka yaqin turgan, og'zaki nutqning nafasati va jilosini ko'rsata olgan san'atlardan yana biri suxandonlikdir.

Suxandon — fors-tojikcha bo'lib, so'z ustasi, so'zga chechan, so'zamol kabi ma'nolarni anglatadi. Uzoq yillar davomida tilshunoslikda odamlar orasidagi aloqa- aralashuvi vositasi sifatida tilni, xususan, nutq jarayonini belgilab kelindi. Ammo keyingi yillar tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki nafaqat ovoqli nutq, balki inson imo – ishoralar orqali ham muayyan fikr ifodalashi, fikr almashishi, mavjud hodisa ekan. Ushbu yo'nalishda ish olib borgan g'arb tilshunoslari va asosan, rus tilshunoslari paralingivistik vositalarini o'rni va ahamiyatini juda yuqori baholadilar. O'zbek tilshunoslari ham mazkur sohaga e'tibor qaratib bir qator ilmiy izlanishlar qildilar. Biz ham bitiruv –malakaviy ishimizda manashu sohada ayrim xulosalar aytishga jazm qildik. Xoh murabbiy, xoh aktyor, xoh diktir, xoh boshqa kasb egasi bo'lsin, davrada boshlovchilikni, suxandonlikni o'z zimmasiga olganlar ana shu haqiqatni to'gri tushunishlari shart. Anglashilayaptiki, suxandonlik o'z talabu mezonlariga ega bo'lgan, ijgimoiy

hayotimizning barcha jabhalarida rasmiy va norasmiy anjumanlarda soʻz va nutq orqali aniq fikrni taʼsirchan yetkazuvchi, elektron ommaviy axborot vositalarida va jamoa oldida oʻz vazifasini ado etuvchi soʻz sanʼatidir.

Ijro bilan bogʻliq boʻlgan sanʼatlardan biri qissaxonlikdir. Qissaxonlik ham yuqoridagi sanʼatlar singari oʻz tarixiga, anʼanalariga ega. Bunda ijrochining sanʼatkorlik qobiliyati birinchi oʻringa chiqadi. «qissaxonlik» ikki xil koʻrinishda mavjud. Biri qissaxon boʻlsa, ikkinchisi qissagoʻydir. Qissaxon forscha soʻz boʻlib, qissa oʻquvchi demakdir. U oʻtmishda arab alifbosidagi badiiy manbani ifodali oʻqib beruvchi boʻlgan. Qissagoʻy esa qissa aytuvchi demakdir. Ular qissalarni ogʻzaki ravishda yoddan aytib beradilar. Aslida, qissaxon ham, qissagoʻy ham qissadagi obrazlarning ruhiyatiga, tabiatiga kirib, ovoz va holatni shunga moslab ijro etishgan.

BMI ning tuzilishi . Mazkur ishimiz kirish , xulosa , foydalanilgan adabiyotlar roʻyhatidan tashqari uch mustaqil bobdan tashkil topgan. Har bir bob oʻz navbatida ichki qisimlarga ham boʻlingan.

Har davrning oʻz talabu taqozosi bor. Voqelik unga muvofiq ravishda xoslik va moslik kasb etadi. Oʻtgan asr eʼtiborli voqea-hodisalarga, tajriba va izlanishlarga boy boʻldi. Respublikamiz miqyosida oladigan boʻlsak, oʻtgan asrning oxirgi oʻn yilligi xalqimiz istiqboli uchun nurli yoʻl boʻlgani sir emas. Bu davrda millatimiz jahon xalqlari orasida oʻz oʻrniga, rutbasiga, tarixiga, muhimi, oʻzligiga ega boʻlgan xalq ekanini namoyon etdi. Siyosiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi oʻzgarishlar, ijobiy siljishlar uning yorqin namunasi boʻldi.

Taassufki, til birliklariga, soʻz va nutq hodisalariga munosabat har doim ham koʻngildagidek emas, qolaversa, har bir fuqaro oʻz tilining sofliqi va boyligi bilan gʻururlanibgina qolmay, balki unga masʼul hamdir. Bu faqat shu soha mutaxassislarigagina daxldor emas, ona tilida fikrlab, shu tilda soʻzlashadigan har bir shaxs oʻz tilining rutbasini bilishi va imkoniyatlaridan foydalanishi lozim.

Yurtboshimizning Oliy Majlis minbaridan turib, «oʻz fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, goʻzal va loʻnda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni,

avvalambor rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin» —deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Milliy mafkura, qadriyat, ma'naviyat va ma'rifat masalalari yetakchi o'ringa quyilar ekan, til nutq, so'z, alifbo masalalariga e'tibor ham shu qadar ahamiyat kasb etib boradi. Uning ijtimoiy vosita quroli, milliy mafkura manbai ekani tobora chuqurroq anglashiladi.

Til nutq hamda yozuv o'zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og'zaki va yozma nutqning asosiy manbai hamdir. Nutqiy bo'linishlar sirasidan o'rin olgan o'qituvchi nutqi ommaga muayyan tilning jozibasi va boyligini namoyon etuvchi asosiy vositalardandir.

Ma'lumki, so'z va nutq vositasida yakka shaxs yoki jamoa bilan muomalada bo'lishga qaratilgan ixtisosliklar ibtidoiy ko'rinishlarda bo'lsada, qadimdan mavjud hozirda ham uning rang-barang, zamonaviy texnika vositalari orqali muloqotda bo'lish shakllari ommalashib bormoqda. G'archi shunday esa-da, so'z, nutq kabi ijtimoiy til birliklariga munosabat hamma davrlarda bir xil bo'lgan. Ajdodlarimiz so'zni, nutqni ilohiy ne'mat va hikmat deb qarashgan. Uni to'g'ri va o'rinli qo'llay bilish nozikta'b notiq'larga, suxanvarlarga nasib etgani rost. Kaykovus «hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir», — degan bo'lsa, Navoiy «Ko'ngil durji ichra guhar so'z durur, Bashar gulshanida samar so'z durur», — deb yozgan edi. G'arbda ham xuddi mashrihzamindagi singari so'z qudratiga katta ishonch bilan qaralgan. E.Jirarden «So'zning kuchi behaddir. Chekinayotgan qo'shinni to'xtatish, mag'lubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutharib qolish uchun goho, o'rinli aytilgan birgina so'z ham kifoya bo'lgan», — deb yozadi. R.Emerson esa «Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi», — deydi.

Shunday ekan, o'rinli so'z, jozibali nutq xalq bilan bog'liqlik va birlikning tayanchidir. Ayniqsa, elektron ommaviy axborot vositalari —ommaviy axborot va radioda faoliyat ko'rsatuvchi, aniqrogi, mikrofon bilan ishlovchilar nutqining ko'rki va jozibasi xalq tilining boyligi va nafosatini ko'rsatuvchi omildir.

I. BOB: SO`Z XOSIYATI VA NUTQ MOHIYATI.

Biz ko`rgan-bilgan, eshitgan, o`qib o`rgangan yoki shohid bo`lgan har bir narsa-hodisaning o`z tayanch nuqtasi bor. Bu faqat kurrai zaminimizdagi voqelikka taalluqli bo`lib qolmasdan, galaktikadagi barcha sayyora, yulduz, samoviy jinslarga ham daxldor. Tayanch nuqtasi bor bo`lmagan narsaning o`zi yo`q. Bo`lgan taqdirda ham, u omonat. E`tibor bering. Hashamatli, naqshinkor, baland imorat oldida turibsiz. Qanchalik ko`kka bo`y cho`zmasin, yoki qanchalik «viqor»li bo`lmasin, uning tayanch nuqtasi-poydevori bo`lmasa, u hech nimadir. Erta-indin qulashi, harobaga aylanishi tayin. Xatto, yerning ham tayanch nuqtasi bor. Beruniy, Arximedlar bu haqda qanchalik o`y surib, umrini band etgan bo`lmasin, tayanch nuqta mutloq haqiqat ekanligini anglab yetishgan. Yerning tayanch nuqtasi bo`lmaganda edi, u allaqachon orbitadan chiqib ketgan bo`lardi.

Shunday ekan, insoniyatning, ellarning, tillarning ham o`z tayanchi, suyanchi bor. Tinchlik, totuvlik, o`zaro birdamlik har bir damda, har qadamda bir-birini tushunishlik xalqlar osoyishtaligi va farovonligining tayanchi bo`lsa, har bir tilning tayanchi esa ayni xalq nutqida istifoda etiluvchi so`zlardan iborat.

Tilning boyligi, go`zalligi, nafosati ham undagi so`zlarning soni va jilosi bilan bog`liq. Uning badiiyligi esa undan foydalanuvchi millatning ma`naviyati va istiqboliga tegishli.

Shunday ekan, har bir so`zning o`z o`rni, o`lchovi, ko`rinishi, vazni, bo`yi, tarovati, hidi bor. Uni didi bor, nozikta`b tafakkur sohiblari anglashadi. So`zning saxovati, qudratidan foydalangan holda nasru nazm durdonalarini yaratishgan. Tilda yuz minglab so`z bo`lsa ham, ularning moddiy asosini bir necha o`nlab tovushlar tashkil qilishi haqida fikr yurita turib, olim Alibek Rustamiy shunday yozadi: «... o`zbek adabiy tilida 31 tovush bor. Shevadagilarni qo`shsak, 40 dan oshmaydi. Shu qadar ozgina tovushdan milliondan ortiq, so`z yasalgan».¹

¹ A.Rustamov. «So`z xususida so`z». «Yosh gvardiya», T., 1987, 12 b

To'g'ri ta'kidlanganidek, gap so'zning soni yoki sifatida emas, balki ularni bilish va o'z o'rnida qo'llay olishdadir. Demak, so'z tuzadi, so'z buzadi, omonlik ham so'z bilan, yomonlik ham so'z bilan, olqish ham so'zdan, qarg'ish ham so'zdan. Bu haqda ko'p ham xo'p yozilgan. Biron mutafakkir, adib yo'qki, so'z haqida, uning harakatdagi ifodasi nutq haqida fikr bildirmagan bo'lsin.

Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lutatit turk» asarida ham shu haqda qimmatli ma'lumotlar uchraydi. «Ardam bashi—til» degan maqol keltiriladi unda. Ardam —hunar, fazilat degan ma'nolarini anglatsa ham, «odob» so'ziga yaqinligini anglab olish qiyin emas. Demak, til odobi inson ma'naviyati va kamolotida yetakchi mezon deb uqtirilayotgani sir emas. Xalq maqol va matallarini, termalarini yiqqan qomusiy olim M.Qoshg'ariy «kishi so'zlashu, yilqi yizlashu» maqolini keltiradi.² «Odamlar bir-birlarini so'zlashib bilganlaridek, xayvonlar hidlashib bilishadi», — degan mazmun ifoda etilmoqda unda.

Navoiy iborasi bilan aytganda, «insonni so'z ayladi judo hayvondin, bilkim, guhari sharifroq yuq ondin» deyish mumkin. Yusuf Xos Xojibning «So'zning o'rni —sir» degan fikrida ham chuqur mantiq yashirin. So'zning sir-sinoatlarini idrok etib, o'rnini topa olgan zukko suxanvarlargina so'zning sahovatlaridan bahramand bo'la oladi, o'zgalarni ham bahramand qila oladi.

Yuqoridagi fikrlarning o'ziyoq, so'zning nominativ funksiyasidan tashqari fikr yetkazuvchi va qabul qiluvchi orasidagi kommunikativ jarayonni ham ta'min etishini anglatadi.

So'zning hosiylati shular bilan cheklanmaydi. Uning imkoniyat qirralarini yetuk notiqalar kashf etadilar. Har bir narsaning xususiyatlari uning to'la ta'rifini berishi uchundir.

Ma'lumki, nutqning, fikrning asosini tashkil qiladigan birlik bu so'zdir. So'z orqali nutq va fikr oydinlashadi So'zlarning harakterini yaxshi bilgan notiq hech qachon qiynalmaydi. Har qanday so'zning hosiylati esa uni o'z o'rnida, to'g'ri ishlata olish bilan belgilanadi. So'z tovush hamda ma'noning dialektik birligidan

² M. Koshariy. Devonu luratit —turk T.,FAN 1960, III t., 14 b.

iboratligini bilgan notiq uni ifodalashda quyidagi bosqichlarni e'tiborda tutishi lozim:

1. *Topish.*
2. *Tanlash.*
3. *Qo'llash (aytish yoki yozish).*

Demak, nutqimizdagi har bir so'z tinglovchiga yoki o'quvchiga kontekstga muvofiq ana shu bosqichlar orqali yetib boradi. Har qanday ma'lumot, fikr, hissiyot ana shu bosqichli jarayonlar orqali anglashiladi.

So'zlarning hosiylatlari haqida fikr bildirib turib, A.F.Koni shunday yozadi: «So'z insonning buyuk qurollaridan biri. O'rnida sidqidildan aytilgan oddiygina so'z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi. U so'zlovchining o'zini qiziqtirib yuborishi, uni va atrofida qilarni o'z nafisligi bilan mahliyo etishi mumkin».

Bu iqtibosda so'z estetikasi, uning ijtimoiy aloqa vositasi ekani ta'kidlanayotgani sir emas.

So'z nutq hosil qilishning bosh omili ekan, demak, uning xarakterini, ma'no darajasini yaxshi bilish lozim. So'z zahirasiga, so'z boyligiga ega bo'lgan nutq sohiblari nazariy va amaliy jihatdan yetuk bilim, malakaga ega bo'lishgan.

So'zlar ma'nodoshligi, shakldoshligi, zidligi, talaffuzdoshligi, dublet va variantlilik, ko'p ma'nolilik, to'g'ri va ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi bilan bir-biridan farqlanib turadi. Bularni puxta o'rganish faqat fikr yetkazish (yoki qabul qilish) uchungina emas, balki uning ta'sirchanligi, ekspressiv va emotsionalligiga ham xizmat qiladi.

So'zning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng maqbul ta'rif shunday ifodalangan: «So'z borliqdagi narsa va narsalarning ma'nosini ifoda etuvchi, grammatik jihatdan shakllangan va jamiyat a'zolari tomonidan bir xil

tushuniladigan, tovush formasida ifodalanadigan mustaqil va markaziy til birligidir».³

Har davrning o'z so'zi bo'lganidek, har bir ijodkorning ham so'zga o'z qarashi bor. Ana shu fikrlarni to'ldirish, boyitishni inobatga olgan holda «So'z haqida so'z» ruknida adiblarning ayrim mulohazalarini keltiramiz. «So'zdan kuchliroq narsa yo'q». *Menandr.*

«So'z bilan ifodalangan har qanday fikr ta'sir ko'lamini tugamaydigan kuchdir». «So'z buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so'z bilan odamlarni birlashtirish, so'z orqali ularni bir-birlari bilan yuz ko'rmas qilib yuborishi mumkin, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlan».

«Til —eng xatarli qurol. So'z yarasidan ko'ra tig' yarasini davolash oson». *P.Kalderon.*

«Qayerdagi, so'z tirik ekan, u yerda hali ish ham o'lmagan». «So'z qanday ishga yo'llashi bilangina qimmatlidir». «Jonli so'z mu'jizalar yaratadi». *I.Burdenko.*

«So'zni ko'ngulda pishirmaguncha tilga kelturma, Har nekim ko'ngulda bor—tilga surma». *A.Navoiy.*

«So'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatni o'yla». *I. P.Pavlov.*

«So'z —gul, ish — meva». *Al-Xorazmiy.*

«So'z shamolga qarab uchadigan uyinchiq pufak emas. U ish quroli: u ma'lum darajadagi og'irlikni ko'tarib turmog'i lozim. O'zgalar kayfiyatini qanchalik rom etishi va o'zgartirishiga qarabgina biz so'zning ahamiyati va kuchini baholamog'imiz mumkin». *V.I.Korolenko.*

«O'z birodaringni yanchilgan mushkdan ko'ra ham xushbo'y so'zlar bilan maqtab yod et, garchand u sendan o'zoq; shaharda bo'lsa ham». «Nodon kishi so'z, hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini

³ A.Sodiqov, Abdu'azizov, M.Irshulov. «O'qituvchi», T., 1981

sezmagani kabi». «Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan». *L.N. Tolstoy*.

«Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni, pandu nasihating) ba'zan qo'lingdan (mol — dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir». *Mahmud A z - Zamaxshariy*.

So'zning xosiyati qanchalik e'tiborli bo'lsa, shunga muvofiq nutqning mohiyati ham muhimdir. Nutq qator xususiyatlar bilan birga nutqiy vositalarga ham ega. Bu holat uning, nutq madaniyatining har ikkala k o'rinishiga, og'zaki va yozma nutqqa baravar taalluqlidir.

Tovush — so'zning moddiy tomoni. Boshqacha aytganda, tovushlar talaffuzi tilning xarakatdagi amaliy jarayoni. Har tovushning o'z sifati jarangi, ohangi va talaffuz me'yori bor. Notiqlar bu jihatlarni doimo nazarda tutishadi. Chunki, nutqqina fikrni sodda, tushunarli va teran bo'lishini ta'min etadi. Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmatini bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan atamalar bor. Nutqning xarakteri ana shularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi. Ularning lingvistik birlik sifatida o'z xususiyatlari bor. Ularni o'zaro fikr almashishdagi nutqiy jarayonning bosqichli shakllari deyish mumkin. Bular: to'g'ri nutq — nutq madaniyati — notiqlikdir. To'g'ri nutq hozirgi adabiy til normalariga rioya qilib tuzilgan nutqdir. Yuqori nutq madaniyati esa, S.I.Ojegov fikricha, «bu fikrlarni til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir».

Notiqlik esa og'zaki nutq madaniyatining yuqori darajasi, yetuk nutqiy san'atdir. Nutq madaniyati aslida, adabiy til mezonlari asosidagi, nutqiy faoliyat, nutqiy malaka, nutqiy ko'nikma birligidan iborat. «Adabiy tilsiz nutq madaniyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining to'g'ri so'zlash va yozishning o'lchovi, mezonidir».⁴ Nutqiy faoliyatning bir-biri bilan uzviy bog'lik, ayni paytda o'ziga xos sifatlariga ega bo'lgan turlari bor. Bular

⁴ .Ko'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubi asoslari.

T., «O'qituvchi», 1992, 27 b.

og'zaki nutq va yozma nutqdir.

1.1.OG'ZAKI BA YOZMA NUTQ IMKONIYATLARI

Kimdir og'zaki nutqda mohir bo'lsa, kimdir yozma nutqda. Notiqar aslida, har ikkalasining ham ustasi bo'lishi kerak. Xalq iborasi bilan aytganda, «gapga do'ppi kiygizadigan» so'z ustalarining nutqi kishini o'ziga rom etmasdan qo'ymaydi.

Og'zaki nutqning ham, yozma nutqning ham o'z talablari, imkoniyat doirasi bor. Shunday odamlarimiz borki, so'z bobida birov oldiga tusholmaydi, hech kimga gap ham, gal ham bermaydi. Lekin yozish bobida ojiz. Ikkita jumlani bir-biriga bog'lab, umumlashtira olmaydi.

O'tmish nutq sohiblari har ikkalasida ham e'tibor qozonganlar. Aslida, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Har ikkala nutqning imkoniyati va qamrovini bilmagan notiq na unisida zo'r, na bunisida.

Xo'sh, og'zaki va yozma nutqning farqli jihatlari biri talaffuz, ikkinchisi yozuv bilan ifodalanishidami? Yo'q, albatta.

Og'zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon. Og'zaki nutq qo'llanish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi kundalik hayotimizda, o'zaro muomala jarayonida ishlatilsa, adabiy so'zlashuv nutqi muayyan shaxslar doirasida tilning me'yoriy mezonlarini qo'llash orqali ro'yobga chiqadi.

1.2 Og'zaki nutqda shevachilik ta'siri

Og'zaki nutqda shevachilik ta'siri sezilib turadi. Biz qaysi viloyatning qaysi go'shasidan bo'lmaylik, nutqimizda ma'lum muddat yashagan makonimizning so'zlashuviga xos shevaning ta'siri bo'ladi. Bu nutq tovushlarining talaffuzida yoki shevaga xos so'z va iboralarni qo'llashda aks etadi. Og'zaki nutq tezkor, avtomatik jarayon bo'lgani sababli o'ylab turish, so'ng so'zda davom etish qiyin. So'zlov va o'ylov bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Boshqacha aytganda, so'zlab turib o'ylaniladi. Og'zaki nutq shaxsiy, individual faoliyatdir. Shuning uchun ham fikriy bayon va nutqiy uslub, ovoz ifodalari bir-biriga o'xshayvermaydi. Og'zaki

nutq so'zlovchining kayfiyati, ruhiyati, tabiatiga hamda vaziyatga, nutqiy a'zolarining sog'lom va normal ishlashiga ham bog'liq. Odamning behol, kasalvand vaqtidagi nutqi bilan sog'lom, ruhan tetik paytidagi nutqi orasidagi farqni sezish qiyin emas.

Kishi so'zlayotganda o'z nutqiga yozayotgandagidek yetarli darajada e'tibor beravermaydi. Ma'lum bir davrada so'zlayotganida nutqida kamchilikka yo'l qo'yganini o'zi sezib qolsa, nutqning keyingi holati ham ko'ngildagidek bo'lmaydi. Og'zaki nutq o'ziga xos grammatik tuzilishiga va qurilish tartibiga ega bo'ladi. Unda gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarishi, almashinishi, takrorlar, keraksiz unsurlarning bo'lishi kuzatiladi.

Og'zaki nutqdagi ma'no ottenkalari, munosabatdagi tasdiq yoki inkor alomatlari, ohang, talaffuz, imo-ishora vositalari orqali amalga oshiriladi.

Yozma nutq

Yozma nutqda esa bu xususiyatlarni ifoda etuvchi boshqa belgilar mavjud. Unda imloviy va punktuatsion normalar muhim rol o'ynaydi.

Yozma nutq, avvalo, u manba. Hozirgi paytda uni qayta o'qish, tuzatish, boshqa so'z va so'z birikmalari bilan almashtirish mumkin. Yozma nutq namunasidagi maqsadni to'la anglash uchun imlo hamda tinish belgilarining xususiyatlarini o'quvchi ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Aks holda, matn zavqu shavqidan bebahra qolinadi.

Nutqni yozma ravishda bayon etish qadimdan qo'llanib kelingan. Munshiylar, kotiblar va allomalar bu san'atni yuqori darajaga ko'targanlar. Yo'zma va og'zaki nutqning jilosi tafakkur mashqlaridir. Shu haqda so'z yuritib, adabiyotshunos olim Nusratillo Atoulloh o'g'li Jumaxo'ja yozadi: «yozma nutq bilan shug'ullanmagan notiq nutqining rivoji sust, sayqal topishi qiyin kechadi. Uning so'z boyligi, ifoda imkoniyatlari cheklangan bo'ladi».⁵

Og'zaki va yozma nutqning o'zaro bog'liqligi ularning shakllanish jarayonidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida ham muhimdir.

⁵ Istiqlo'l va ona tilimiz "Sharq", T.1998, 72b.

Davraga chiquvchi notiq demoqchi bo'lgan maqsadini to'la bo'lmasa-da, xomaki tarhini qogozga tushirib rejalalashtiradi. Nimadan nimaga o'tish, qancha to'xtalish, nimalarni aytish yoki aytmasslik haqidagi chizgilar notiq, so'zlayotgan paytda ham uning ko'z oldida xuddi qog'ozdagidek xayoliy suvrati namoyon bo'lib turadi. Aks holda nutq me'yori buzilib, vaqt cho'zilib ketishi, auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin. Qo'pol aytganda, notiq o'zining fikr tizginini jilovlay olmasdan talmovsirab qolishi mumkin. Yuqorida keltirilgan ihtibosning davomida xuddi shunday ibratomuz fikrlarni o'qiymiz: «Notiqning fikru o'ylari, qalb kechinmalari yozma nutq jarayonida rosa ishlanadi, pishib mumtoz darajaga yetadi. So'ng og'zaki nutqda jamol ko'rsatadi. Og'zaki nutq ham ijod jarayoni. Unda inson favqulodda noyob fikr, g'oyalarni, badiiy ifodalarni kashf etadi. Ularni so'zlab yurib, pishitib sayqal toptiradi va qiyomini quyma qilib yozma nutqida terib yozadi».⁶

Og'zaki nutqning qator vazifaviy ko'rinishlari mavjudki, ular kezi kelganda, yozma nutqga jilo beradi. Uning ta'sirchanligini oshiradi. Kundalik so'zlashuv nutqi, ma'ruzachilar nutqi, radio va ommaviy axborot nutqi, sahna nutqi bularning har biri alohida tadqiqotni talab etadi. Biz keyingi bo'limlarda ularning ayrimlariga imkon qadar to'xtalib, og'zaki va yozma nutqning boshqa xususiyatlari haqida ham mulohazalar bildiramiz.

⁶ O'sha kitob 73-bet.

II. BOB. SO'Z, NUTQ VOSITASIDA YAKKA SHAXS YOKI JAMOA BILAN MUOMALADA BO'LISHGA ASOSLANGAN YONDOSH SAN'ATLAR

Amir Temur o'z tuzuklarida yozadi: «Har bir mamlakatning ahvolini, kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turish uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar (axbornavis, xabarchilar) belgiladim. Bordi-yu noto'g'ri narsa yozganlari menga ma'lum bo'lib qolsa, bunday voqeanavislarni jazoladim».⁷

Bu fikrning o'ziyoq, kommunikatsiya ijtimoiy-siyosiy va axloqiy mezonlar doirasida amalga oshirila boshlanganini ko'rsatadi. Hukmdorlar so'z va nutq, vositasida yakka shaxs yoki jamoa bilan munosabatda bo'lishga qaratilgan boshqa san'at turlarining shakllanishi va rivojiga ta'sir etgani rost.

Dastavval, bir-biriga yaqin, keyinchalik o'z xususiyatlari bilan farqlangan qator san'at turlari paydo bo'lgan. Hukmdorlar ularga befarq qarashmagan. Amir Temur saroyida qissaxon, hotiq, voiz, badihago'y kabi san'at ahllarining mavjud bo'lgani shu fikrni tasdiqlaydi.

Voizlik qadimiy san'atlardan biri bo'lib, va'z (pand, nasihat, o'git), voiz (pand-nasihat qiluvchi) atamalarini o'z ichiga oladi. Voizlik haqida ko'pgina manbalarda so'z yuritilgan. Ba'zi tadqiqotchilar bu san'atni notiqlikning bir turi sifatida talqin etsalar, ba'zilar esa uni notiqlik bilan teng qo'llaydilar. Bir jihatdan qaraganda, har ikkalasi ham to'gridek ko'rinadi. Lekin chuqurroq nazar tashlansa, ular o'zaro uzviy chambarchas bog'langan, yakka holda anglash mushkul. Mohiyat e'tibori bilan esa alohida san'atlar ekani ham ayon bo'ladi. Notiqlik qo'llanish o'рни, mavzu doirasi va ma'no qamrovi jihatidan bir muncha keng. Voizlik ham nutqiy mahorat orqali o'z ro'yobini ko'rsatadi. Unda diniy, didaktik va hayotiy mazmun ustuvorlik qilgan, notiqlik dunyoviylik bilan hamma davr va makonlarda har xil g'oya va maslamlarga xizmat qilgan. Shunday ekan, voizlik notiqlikning bir k o'rinishi degan fikr haqiqatga yaqin. Voizlik, va'z, voiz, va'zxon tushunchalariga sharq allomalaridan aksariyati izoh berib, o'z

⁷ Temir turuklari .T.1998.29 b.

munosabatlarini bildirib o'tganlar. Ulardan eng e'tiborlisi, Alisher Navoiyning mulohazalaridir. Adib «Mahbub ul-qulub» asarida «Voiz haq so'zni targ'ib qilishi, payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi haq va payg'ambar yo'lga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq —musofirni yo'ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi —uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da'vat etganiga o'xshash bir narsadir», — deb yozadi.⁸

Navoiy fikricha, voizda so'z va ish, ilm va amal birligi bo'lmasa u hech nimadir, so'zi ham e'tibor tutmas. Voizlar diniy, didaktik, islomiy aqidalarni notiqlik va nutqiy mahorat bilan ommaga singdirishga intilganlar. Notiqlik ham voizlik bilan bog'liq bo'lib o'zaro uyg'unlashib ketgan. Voizning nutqi ba'zi didaktik unsurlar, pand-nasihatlar bilan muzayyan etilgan bo'ladi. Bu uning ta'sir kuchini oshirishga zamin hozirlaydi. Demak, voiz islomiy e'tiqod bilan bog'liq masalalarni yetkazuvchi notiq bo'lgan. Hozirda ham voizlikning ba'zi ko'rinishlari ko'zga tashlanmoqda. Ma'raka va marosimlarda, xususan, amri ma'ruflarda voizlar zamon bilan bog'lagan holda ota-ona va farzand burchlari, farzlari, iymon-e'tiqod haqida mazmundor suhbatlar uyushtiradilar. Istiqlol g'oyalari, yangi davr unutilib ketayotgan san'atlarning qayta tiklabgina qolmay, milliy istiqlol g'oyasining mustaqamligini targibu tashviq etishda ham qo'l kelishini ko'satmoqda. Va'zxonlik davrga mos va xos tarzda milliy libos kiyib boradi.

Voiz keng qamrovli bilimga ega bo'lishi kerak. «Va'zxon shunday bo'lishi kerakki, — deb yozadi Navoiy,—uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin, to'la kirgan odam esa yengil tortib xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish ko'ruvchi bo'lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo'ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o'zi qilmasa, uning so'zlari hech kimga ta'sir etmaydi va

⁸ «Mahbub ul-qulub» (Inoyat Maxsumov nasriy bayoni.) G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.1983. 31 b.

foйда keltirmaydi. O'z yordamchilari orqali nasihat qiluvchi voiz — o'zi qolib shogirdini kuylatuvchi qo'shiqchidir».

Anglashilayaptiki, voizlikning o'z shartlari, talablarini bilishlik, so'ngra ishga kirishlik muhimdir. Voiz va'zi, nasihatining qadr-qimmati, avvalo, uning el orasidagi mavqeiga, obro', izzat-hurmatiga daxldordir. Aks holda eshituvchilar «uning o'zi kim-u, so'zi nima bo'lardi», —deya bepisandlik bilan gap tarqatishi hech gap emas.

Xullas, har bir kasb-hunarning o'z xosiyati, mohiyati, talab-taqozolari bo'lganidek, unga amal qiluvchilarning fe'l-atvorlari ham turlicha bo'ladi. Voizlik o'z davrida o'z vazifasini ado eta olgan san'atlardan. Muhammad G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, «Va'z aytishning ma'no-mohiyati — banda oxiratni eslab Alloh huzurida o'zining ongsiz ekanligini sezmogi, o'tgan umrining benaf ishlar bilan hayf ketgani va kelgusida (qiyomatda) nechog'lik mashaqqatlar kutayotganini» anglatishdan iborat. Agar voizlik shu bilan cheklanadi desak, uning vazifasini biroz toraytirgan bo'lamiz. Har davrning o'z g'oyalari va shakllari bo'ladi. Inson kamolotida diniy va dunyoviy ta'limotning o'z ta'siri bo'lar ekan, voizlik ham yangicha ko'rinishda yashashga haqli.

Ma'naviyatli, ma'rifatli jamiyat o'lmas g'oya va shakllardan foydalanib kelgan.

Yurtboshimiz ta'biricha, «Ma'naviyat insonga ona suti, ota ibрати va ajdodlar o'giti bilan birga singadi». Demak, voizlik ma'lum g'oya va maslakni so'z va nutq imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish asnosida nasihatimiz tarzda etkazish san'atidir.

Voizlikka yaqin turgan, og'zaki nutqning nafosati va jilosini ko'rsata olgan san'atlardan yana biri suxandonlikdir.

Suxandon — fors-tojikcha bo'lib, so'z ustasi, so'zga chechan, so'zamol kabi ma'nolarni anglatadi.

Har bir tilning go'zalligi, jarangi, boyligi va ohangi boshlovchi nutqida aks etadi. Tinglovchi uning nutqi orqali o'z ona tili bilan g'ururlanadi. Uning nutqiga qarab adabiy tilning talaffuz normalari belgilanadi. Sheva unsurlarini qorishtirish,

ayrim tovushlarni yamlash, so'zlarni chaynash kabi qusurlardan xoli bo'lgan nutq go'zal, yoqimli va eshitishlikdir. To'g'ri, hamma ham tiniq va chiroyli talaffuzga ega emas. Lekin nutqiy go'zallikka intilish kerak. Aslida, jarangdor va yoqimli ovoz Olloh ne'mati. Uni asray bilish va keng imkoniyatlaridan (rasmiy, badiiy, ilmiy nutqlarda) foydalana olish mahorat belgisidir. Bularning hammasi tabiiylik mezonini doirasida bo'lishi kerak. Ovozni atay yo'g'onlashtirish, ingichkalashtirish, zo'rma-zo'rakilik tovush paychalarining cho'zilishiga olib kelishi mumkin. To'g'ri, har kim ham ovozni o'zgartirish qobiliyatiga ega emas. Muqallidlik (taqlidchilik) san'atida badiiy mazmundagimatnlarni o'qishda bu usul asqotadi. Lekin tabiiy ovozga nima yetsin. Ba'zilar hatto, tabiiylik va sun'iylikning chegarasini anglamasdan, boshlovchilarga baho berishga intilishadi. Taqlid bilan ta'sirni farqlash kerak. Taqlid chinakam san'atning rivojiga, to'siq. Lekin kishining ovoziga, xatti-harakatiga, tabiat hodisalariga, parranda va darrandalar tovushiga, qilig'iga o'xshatish, taqlid qilish asosiga qurilgan muqallidlik san'atida taqlid tushunchasi ijobiy xususiyat kasb etadi. Shu ma'noda ta'sir, taqlid tushunchalari uyg'unlashib ketadi. Qolaversa, bu tushuncha inson tabiatida o'zi sezmagan holda mavjud. Go'daklik paytida inson ota-onaning yurish-turishiga, so'zlashiga taqlid qiladi. Uningdek bo'lgisi, o'tirgisi, so'zlashgisi keladi. Bu holat keyinchalik bog'cha tarbiyachisi, enagasi, maktab o'qituvchisi, korxona rahbari va hokazolar bilan bog'liq davom etishini bilasiz.

2.1 Suxandonlik

Xo'sh, o'tmishda suxandonlik san'ati, uning shartlari, mezonlari haqida qanday manbalar bor?

XI asrda yashagan Amir Unsurulmaoliy Kaykovusning «Qobusnoma»sida bu san'at tabiati bilan bog'liq muhim mulohazalar ilgari surilgan. Suxandon so'zning o'rnini, tabiatini to'g'ri belgilashi lozim. So'zning to'rt navi borligi, uni qo'llaydiganlar ham to'rt xil bo'lishi ta'kidlab o'tiladi. So'z martabasi kishi bilan

emas, kishi martabasi soʻz bilan ekani uqtirilib, har bir soʻzning ikki yuzi bor: «biri xoʻb, biri zisht», — deyiladi. Xoʻb—yaxshi, zisht —yomon demakdir.⁹

Buni bilish faqat soʻz ustalariga emas, balki hamma uchun zarurdir.

Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati» kitobining «Suhbat odobi», «Maddohlar va gʻazalxonlar zikrida» nomli qismlarida eʼtiborli mulohazalar ilgari surgan.¹⁰

Dastavval, «maddoh» soʻzining Koshifiy qoʻllagan va hozirgi maʼnolari tafovuti haqida. «Maddoh» madh etuvchi demakdir. Ahli saltanat, ahli bayt taʼrifida maqtoʻv soʻzlarni aytib yurish ularga xos boʻlgan. «Maddoh hozirda birmuncha salbiy ottenkali maʼnoni ifodalaydi. Bu soʻz hozirda biron narsa ilinjida taʼmagirlik bilan oʻrinsiz mahtovlarni yogʻdiradigan, tengsiz taʼrifu tavsiflar bilan nutq irod etuvchi laganbardorlarni ham eslatadi. Koshifiy madh etishning asoslari va xususiyatlari haqida soʻz yuritib, maddohlarni toʻrt guruhga boʻladi.

1. Oʻzlari badehatan ijod etuvchilar. Ular sheʼr yozish va yetkazish iqtidoriga ega boʻlishadi. Fikr yoʻsinida lozim boʻlgan rivoyatu hikoyatlarni xoh nazmiy, xoh nasriy tarzda toʻqib, bichib aytishaveradi. Ularda ijod va ijro bir vaqtning oʻzida amalga oshiriladi. Ularda davraga mos, xos soʻzni topish va aytish qobiliyati shakllangan boʻladi.

2. Boshqa shoirlarning sheʼr, hikoya, badihalarini ijro etib, xalqqa foyda etkazuvchilar. Bular roviylar deyilgan. Bularda ijoddan koʻra, ijro mahorati ustunroq boʻladi. Ular maʼlum fikrni ommaga singdirishda mohir ijrochi sifatida gavdalanishadi.

3. Maddohlik barobarida boshqa ishlar bilan ham shugʻullanib xalqqa foyda yetkazuvchilar. Ularning asosiy kasb-hunari boshqa boʻlgani bilan soʻzga, nazmga, badihaga moyilligi kuchli boʻladi. Davraning kayfiyatini, mavzuni ilgʻab olgan holda soʻz aytishga qobil boʻlishadi.

⁹ «Qobusnoma». «Meros».1992.33b.

¹⁰ Qayd etilgan kitob.«Meros»,1994.76b.

4. Har yerdan har xil baytlarni yod olgan kishilar bo'lib, eshikma-eshik yuradilar. Qasida aytib, non yig'adilar va maddohlikni gadoylik deb tushunadilar. Ularda ta'magirlik, yalinish, iltijo ohangi ustuvor. Odamlarni insofga chaqirish, rahmini keltirish, achintirish yo'li bilan baytlar aytib kun ko'rishadi.

5. Maddohlik odobi, sifatлари, o'ziga, so'ziga va o'zgaga e'tibor bilan uyg'undir. Doimo taqvo va tahoratda bo'lish, g'arazli niyatda qasd olish uchun maddohlik qilmaslik, boylikka berilmaslik, madhda oshirib mubolag'a qilish bilan shug'ullanmaslik maddohlik odobi bo'lsa, maddohlik sifatлари esa sidq, sabr, shukr, zuhd(parhez), toat, qanoat, muhosaba (umr hisobini olish), xudo yodida tafakkurga berilish, tavozu', ixlos, karam, tafakkur, tavakkul kam yeyish, kam uxlash, shafqatli bo'lish kabilardir.¹¹

Yuqorida qayd etilgan sifatlar bilan bog'liq holda maddohlar hazar qiladigan sifatlar haqida ham Koshifiy ibratomuz fikrlarni bildirib o'tadi. Ular soni o'ttizta: g'aflat, g'urur, aybjo'ylik, riyo, mayxo'rlik, qorako'ngillik, zino, badahloqlik, janjalkashlik, yaramas va noshoyista so'z aytish, va'dani buzish, mashara, mazax qilish, nohaq ta'na, yolg'on gapirish, yolg'on qasam ichish, birodarlarni giybat qilish, tuhmat qilish, gap tashish, g'ammozlik, xasad, makkorlik, odamlarni yomonlash, boylikka xirs qo'yish, zulm, baxillik, ko'p uxlash, ko'p yeyish va xokazo.

Maddohlarning o'zaro munosabatlaridagi qoidalar haqida to'xtalib, Koshifiy ularning bir-biri bilan do'st bo'lishini, o'zaro kelishmay ish boshlamasliklarini, zaif, ojizalarini dargohlaridan surib chiqarmasliklarini, gumon va shubhaga yo'l qo'ymasliklarini, hamma yerda aziz va muhtaram bo'lishlarini uqtirib o'tadi. Bunday xususiyatlarni yaxshi bilgan maddohlar 3 xil bo'lishini ta'kidlaydi. Birinchisi, ravon va ifodali tarzda she'r o'qiydilar. Ikkinchisi, nasriy asarlar, mo'jaz gaplar, ibora va ta'rifu tavsif (qasidaxonlikni) nasr bilan ifoda etadilar. Ularni g'arraxon (chiroyli o'qiydiganlar) deyishadi. Uchinchi toifasi esa murassa'xon (so'z ustalari) deb yuritiladi.

¹¹ O'sha kitob.77 –78 b.

2.2 Qissaxonlik

Xoh murabbiy, xoh aktyor, xoh diktir, xoh boshqa kasb egasi bo'lsin, davrada boshlovchilikni, suxandonlikni o'z zimmasiga olganlar ana shu haqiqatni to'g'ri tushunishlari shart. Anglashilayaptiki, suxandonlik o'z talabu mezonlariga ega bo'lgan, ijgimoiy hayotimizning barcha jabhalarida rasmiy va norasmiy anjumanlarda so'z va nutq orqali aniq fikrni ta'sirchan yetkazuvchi, elektron ommaviy axborot vositalarida va jamoa oldida o'z vazifasini ado etuvchi so'z san'atidir.

Ijro bilan bog'liq bo'lgan san'atlardan biri qissaxonlikdir. Qissaxonlik ham yuqoridagi san'atlar singari o'z tarixiga, an'alariga ega. Bunda ijrochining san'atkorlik qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi. «qissaxonlik» ikki xil ko'rinishda mavjud. Biri qissaxon bo'lsa, ikkinchisi qissago'ydir. Qissaxon forscha so'z bo'lib, qissa o'quvchi demakdir. U o'tmishda arab alifbosidagi badiiy manbani ifodali o'qib beruvchi bo'lgan. Qissago'y esa qissa aytuvchi demakdir. Ular qissalarni og'zaki ravishda yoddan aytib beradilar. Aslida, qissaxon ham, qissago'y ham qissadagi obrazlarning ruhiyatiga, tabiatiga kirib, ovoz va holatni shunga moslab ijro etishgan.

San'atshunos olim Muhsin Qodirov ham shu haqda e'tiborli mulohazalarni bildirganlar. Qissaxonlar yohimli va ta'sirli ovozga ega bo'lishgan, qissa va rivoyatlarni ich-ichiga kirib, voqealarni jonlantirib, his-hayajon va iztirob bilan bayon qilishgan. To'g'rirog'i, qissa va rivoyatlarni o'qishmagan, ijro etishgan. Amir Temurning qissaxonlikka qizihishi, rivoyatlar, hikoyatlar unga yod bo'lib ketganligi shundan. Sohibqiron qissaxonlarni ham o'ziga yaqin, hurmatli kishilar qatoriga qo'shgan va ularga g'amxo'rlik qilgan. Ularga o'z hollariga qarab, suyurg'ol, vazifa va maosh belgilagan. Amir Temurning qissaxonlarni bunchalik e'zozlashi, muttasil murojaat qilib turishiga ularning jozibali nafasi, ijro mahorati, sharqona an'analarga (barcha shohlarning xos qissalari bo'lgan) sodiqlik ham sabab bo'lgan, albatta. Ammo har holda asosiy sabab sohibqironning mamlakatlar, xalqlar, sultonlar tarixiga qiziqishiga borib taqaladi. Tarixdan saboq olgan, o'z

faoliyatida ibratli jihatlardan foydalangan. Bu ishda boshqa ma'rifat va madaniyat ahli qatori qissaxonlar ham Amir Temurga yordam berib turishgan.¹²

Ibn Arabshoh sohibqironning qissaxonlarni xush ko'rganligi haqida yozadi: «Temir tarix kitoblari —anbiyolar qissalarini, avval o'tgan podshohlar siyratlari va qadim o'tgan salaflar haqidagi hikoyatlarni doimo safarda bo'lganida ham, safarda (bir joyda muqim) turganida o'qitib, qunt bilan tinglar edi. Bularning hammasi fors tilida edi. Ushbu hikoyatlarning qayta-qayta takrorlanib o'qilishi, ular nag'malarining o'z qulog'iga muttasil chalinishi natijasida Temur ushbu hikoyatlar jilovini qo'lga olib, batamom o'zlashtirib olgan edi. Bu hol shu darajaga borib yetgandiki, agar o'qiyotgan qissaxon biror xatoga yo'l qo'ysa, Temur uning xatosini tuzatib savob(to'g'ri) yo'lga solar edi».

Qissaxon va qissago'ylikning qoida va shartlari haqida fikr bildirilgan manbalar ham mavjud. Xusayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati» kitobida shular e'tirof etiladi. Qissa o'qish va qissa eshitishning foydasi katta. Birinchidan, kishi o'tgan ajdodlarning ishi va ahvolidan xabardor bo'ladi. Ikkinchidan, odam g'aroyib va ajoyib voqea, sarguzashtlarni eshitsa, fikri va ko'zi ochiladi. Uchinchidan, o'tganlarning zahmatu uqubatlaridan xabardor bo'lsa, hech kim bu dunyoda tashvishu g'amdan ozod emasligini anglab, ko'ngli taskin topadi, tasalli bo'ladi. To'rtinchidan, o'tgan podshohlar davlati va mulkning zavolini eshitsa, dunyo moliga mehri susayadi, boylik kishiga vafo qilmasligini bilib oladi. Beshinchidan, qissa eshitgan behad ko'p ibrat oladi, tajriba orttiradi. Bas, ma'lum bo'ladikim, o'tmish ajdodlarning qissalarida foyda ko'p, agar bo'lib o'tgan voqealar bo'lsa, aytuvchi va o'quvchi bilan birga eshitguvchi ham undan naf' topadi va agar gayri voqe' (to'qima) bo'lsa, aytuvchi uchun gunoh hisoblansa-da, ammo eshituvchi uchun foydali va savobdir.¹³

So'ngra hikoyat aytishning sakkizta qoidasi keltiriladi. Avval shuki, qissaxonlik boshlanganda, agar kishi qissani boshlovchi bo'lsa, u ustoz ta'limini

¹² Ma'lumot uchun qaralsin. M. Qodirov. "Temur va temuriylar davrida tomosha san'atlari" T, G. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 96, 21, 22b

¹³ Qayd etilgan kitob. "Meros", 1994, 81b

olgan kishi bo'lishi kerak. Va agar qissani tugatuvchi bo'lsa, o'zi mustaqil takrorlagan bo'lsin, toki esidan chiqib, tutilib qolmasin. Ikkinchidan, chapdastlik bilan so'zga dadil kirishsin, xomlik va lanjlik ko'rsatmasin. Uchinchidan, ma'raka qanday asarni qabul qilishini anglasin va el rag'batini ko'proq bo'lgan asarni tanlasin. Ammo me'yorni saqlasin. To'rtinchidan, hikoya davomini nasrni gohi-gohida nazm bilan qo'shib olib borsin, lekin bu eshituvchilarga malol kelmaydigan darajada bo'lsin. Ulug'ustozlar nazm qissaxonlikda bamisoli taomga solinadigan tuzdir, agar kam bo'lsa, taom ta'msiz bo'ladi va agar ko'paysa, sho'r bo'ladi, deganlar. Bas, me'yorni saqlashi lozim. Beshinchidan, yolg'on va ishonarsiz so'zlarni gapirmasin, toki elning nazaridan qolmasin. Oltinchidan, kinoyali, tushunmaydigan so'zlarni aytmasin, chunki bu eshituvchilarni ranjitadi. yettinchidan, ta'ma bilan odamlarning joniga tegmasin, gadoylik qilmasin. Sakkizinchidan, qissaxonlikni tez tugatmasin va haddan ziyod cho'zmasin ham, o'rtalikni saqlasin.¹⁴

She'rni ohang bilan o'qish, so'zni odamlar qalbiga joylay olish, tushunilishi mushkul bo'lsa, uni sharhlab ma'nosini aytib berish, o'qigan matn muallifini ma'raka oxiri yoki boshida tilga olib duo qilish kabi talablar ham qissaxon yoki qissago'ylikning muhim sifatlaridan biri ekani qayd etiladi. Qissaxonlik, qissago'ylikni yaxshi tushunish uchun, dastavval, «qissa o'zi nima?» degan savolga to'xtalish kerak.

Mumtoz merosimizda «xalq kitoblari» nomi bilan yuritiluvchi turkum asarlar bor. Ular zahirida og'zaki adabiyot namunalari bo'lsa-da, xattotlar, xalq shoirilari tomonidan ko'chirilib, sayqallangan holda yozma manba sifatida etib kelgan. Shuning uchun bunday asarlar og'zaki va yozma adabiyotning hosilasi sifatida tushuniladi. Xalq kitoblarida har ikkalasiga xos xususiyatlar uyg'unlashadi.¹⁵

¹⁴ O'sha kitob.82b.

¹⁵ R.M.Jumaniyozov.xalq ijodi –haq ijod.T. "O'zbekiston" ,1993.

«Xalq kitoblari», «qissa» atamaları fanda baravar qo'llanib kelinadi. Adabiyotshunosligimizda «*xalq kitoblari*» iborasi atama sifatida qachondan buyon qo'llanila boshlagani haqida aniq bir fikr aytilmasa-da, mazkur kitoblarning yaratilish tarixi uzoq asrlarga borib taqalishi shubhasiz.

«O'q o'tmas Zigfrid haqida qissa», «Shildbyugerlar »,«Ulenshpigel», «Melyuzina», «Tristan», «Magelona» kabi xalq kitoblari german va roman xalqlari orasida qanchalik mashhur bo'lsa, «Rustami Doston», «Jangnomai Jamshid» kabi asarlar ham xalqimizning ma'naviy hayotida katta shuhrat qozongan. Hind xalqlarining «Mahabhorat», «Ramayana»si, eronliklarning «Qissai Abo Muslim», «Zufunun»i haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin.

Zayniddin Vosifiyning «Navodir ul-vaqoe»sida Navoiy ishtirokida tez-tez qissaxonlik kechalari bo'lib turishi, «Amir Hamza», «Qissai Abo Muslim», «Dorob» kabi kitoblarning mutolaa etilishi borasida so'zlanadi.¹⁶

Xalq kitoblari ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida kishilar talab va ehtiyojlarining natijasi o'laroq paydo bo'lib, bizgacha turli yo'llar bilan yetib kelgan. Shuning uchun ham ularda har xil ijtimoiy sharoit, turli davr voqealari o'z izini qoldirgan. Bu esa xalq kitoblarini ham mazmunan, ham shaklan murakkab badiiyat namunasi koliga keltirgan.

Folklorshunoslikda va adabiyogshunosligimizda bu xildagi ijod durdonalari to'la va atroflicha o'rganilgan emas.

Fanda «xalq, kitoblari» atamasi borasida turlicha fikrlar bor. Mazkur atama, dastlab XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida nemis adabiyotida ishlatila boshlangan. O'zbek folklorshunosligida ayrim tadqiqotchilar bunday asarlarni «qissa» termini bilan yuritishni ma'qul deb hisoblaydilar.¹⁷

Bu holda ular shu tipdagi namunalarga «qissa» so'zining ilova qilinganligini («Qissai Yusuf», «Qissai Xushang) hamda o'rta asrlarda ham ular xuddi shu nom bilan atalganini nazarda tutadilar. Biroq bu atama bizgacha yetib kelgan xalq kitoblarining janr xususiyatlarini o'zida to'la ifoda eta olmaydi. «Qissa» arabcha

¹⁶ Navoiy zamondoshlari xotirasida.T.1985,118b.

¹⁷ T.Mirzayev. "Xalq baxshilarining epik repertuari". T.1979,14b.

so'z bo'lib, tarix, boshdan kechirmok, hikoya, voqea degan ma'nolarni anglatadi. O'rta asrlarda ham «Qissa» deyilganida, xuddi shu ma'nolar e'tiborda tutilgan. "Xalq kitoblari" iborasini janr atamasi deyishga ham asos yo'q (qolaversa, bunday janrning o'zi yo'q). Afsuski, ba'zi ilmiy izlanishlarda xalq kitoblari janr sifatida e'tirof etiladi.¹⁸

Taniqli folklorshunos olimlardan V.M. Jirmunskiy va X.T. Zarifovlar ilk marta ayrim maqolalarida o'tmishda yaratilib, kitobat qilingan afsona, ertak, doston kabi namunalarni shu atama bilan yurita boshlaganlar. O'shangacha bu xil namunalar «qissa» deb atalgan, ba'zi hollarda ularning folklorga xos xususiyatlari ustun bo'lganligi uchun og'zaki eposdeb ham qo'llab kelingan.

«Qissaxon» va «qissago'y» atamalari ham shu bilan bog'liq. Xozirda ham bu san'atning ayrim ko'rinishlari mavjud. Xorazm, To'rtko'l, Farg'ona, Surxondaryo vohasi hududlarida ana shunday namunalarni o'qish, tinglash kechalari bo'lib turadi. Ayniqsa, bunday tadbirlar ramazon oylarida, hayit bayramlari va sayllarda tez-tez tashkil etiladi. Bu vazifani arab alifbosidan xabardor, turkiy qo'lyozmalarni ravon va ifodali o'qiy oladigan diniy va dunyoviy ta'limdan savodxon kishilar (ko'pincha, mulla, otinoyilar) bajarishgan.

Qiroatxonlik — ta'sirchan, ifodali o'qish san'ati. Aslida, qissaxonlik ham uning bir ko'rinishi. O'ziga xos o'qish yo'li va uslubini o'z ichiga olgan bu san'at qiroat qoidalarini bilan turli xalqlarda mavjud bo'lgan. Evropada nazmni nasrga, nasrni nazmga moyil qilib o'qish usulida ham qiroatxonlikning ayrim qirralari bor. Qiroat odlii so'zlashuv uslubi va ohangidan farq qilgan holda musiqiylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Arabiy qiroat talabi, tajvid qoidalarini bilan o'qiluvchi Qur'on tilovati shunga misoldir. Qur'on yoddan yoki manbaning o'zidan o'qiladi. Har ikkalasida ham qiroatga rioya etiladi. So'zlash bilan qo'shiq orasidagi ohang asnosida o'qiladi. Bu xususiyat forsiy va turkiy qiroatga ham tegishli. Jangnoma, oshiqona yoki falsafiy dostonlarning ham o'z o'qilish yo'li bor. «Shohnoma», «Saddi Iskandariy» asarlari uchun muayyan vazn, ohang qo'llansa, «Farhod va Shirin», «Xiradnoma», «Yusuf va Zulayho» uchun boshqasi

¹⁸ Majidov.R. "Xalq kitobi termini haqida". Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. T.1978, 169 –179b.

qo'llaniladi. Demak, qiroatxonlikda nazmiy asarlarni o'qishda vazn talablarini bilish hamda amal qilish muhimdir.

Aniqrog'i, aruz vaznidagi asarlarni o'ziga xos o'qish qoidalarini bor. Bu esa barmoq vazni yoki erkin vazndan keskin farq qiladi. Unli tovushlarning cho'ziq qisqaligiga asoslangan izchillik, musiqiylik aruz vazni tabiatini belgilashini yaxshi bilasiz. Hozirda qiroatxonlikning bir necha ko'rinishlari ta'lim tizimi qo'llaniladi. Nazmiy hamda nasriy matnlarni o'qish, ayni paytda adiblarning nomlari bilan bog'liq bo'lgan adabiy o'qishlar ham bor. Deylik, navoiyxonlik, bedilxonlik, ogahiyxonlik, mashrabxonlik, furqatxonlik va hokazo.

Ularda nomi qayd qilingan adibning ijodidan namunalar o'qiladi. Asarlar tahlil etilib, tushuntiriladi. Ifodali o'qish mahoratini egallaganlar rag'batlantiriladi.

Shuningdek, mumtoz she'riyat janrlarining nomlari bilan bog'langan qiroatxonliklar bor. Bular g'azalxonlik, masnaviyxonlik, hikmatxonlik, ruboiyxonlik, qit'axonlik, fardixonlik va hokazo.

2.3 Dabirlik, kotiblik

Yuqorida asosan, og'zaki nutq bilan, ijod va ijro bilan Bogliq san'atlarga to'xtab o'tildi. Yozma nutq bilan bog'langan qator san'atlar, aytish mumkinki, kasb-hunarlar ham bo'lgan. Ular ham ajdodlarimiz e'tiboridan chetda qolmagan.

Kaykovus "Qobusnoma" sida tilga olingan dabirlik, kotiblik ana shular sirasiga kiradi. Aslida, bu kasb, hunar, lekin uni san'at darajasiga ko'tarishgan. Agar «dabir (ish yurituvchi) va kotib bo'lsang, yozma nutqni yaxshi egallagil, xatni yaxshi bilgil va ko'p yozmoqni odat qilg'il toki, yaxshiroq mohir bo'lg'aysen».¹⁹

Yozma nutq sirlarini bilish xat ilmini egallashni ham taqozo qiladi. Qog'oz yuziga tushgan chiroyli xat zavq-shavq uyg'otadi. Shuning uchun mirzolik, munshiylik, xattotlik uzviy bogliq. Ularning mashqi doimiy, uzluksiz bo'lishi zarurligi uqtiriladi.

¹⁹ Qayd etilgan kitob.129b.

Xoja Ismoil kotiblarga debdi: «O'zimning kotibligimda har shanba kuni nuqson ko'raman, buning sababi shuki, har juma kuni devonxonaga kelmayman, xech narsa yozmayman».

Maktubning go'zalligi qogozga tushgan xatning chiroyidagina emas, balki undagi fikriy teranlikdadir. Xatni o'qishlik qilish zarur. Unda maqsad aniq bo'lishi lozim. Istioralar, ibratli hikoyatlar bilan dalillash ta'sir kuchiga kuch qo'shadi. Xattotning baxti-taxti uning xusndor xatida bo'lganidek, dabir, munshiy, kotibning muvaffaqiyati sodda, aniq, teran matn bilan maqsad anglatishidadir.

«Kotiblikning yana bir sharti uldurki, kotib bo'lg'oningda hamisha podshoh huzurida hozir bo'lg'il va har ishning otini bilgil .Barcha ishni imtihon qilg'il , bir ishdin faromush bo'lmagil, hamma ishni yodingda saqlagil va barcha devonning holidin ogoh bo'lgil. Hamma omilning muomalalarin bilgil va har turli ishni bilmakda tajassus (qidirish) qilgil» — deb yozadi Kaykovus.²⁰

Dabirlik, kotiblik, mirzolik, munshiylik, xattotlik bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lib, bu kasb egalari yozma nutqning ifoda imkoniyatlarini puxta egallagan bo'lishlari zarur.

Og'zaki yoki yozma nutq bilan bog'liq san'atlar qatorini yana davom ettirish mumkin. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ularning hammasi ijro hamda ijod bilan, so'z hamda nutq bilan o'z tarovatini ko'rsatadi. So'zni to'g'ri topish, tanlash va o'rinli qo'llash og'zaki hamda yozma nutqqa zeb beradi.

So'z va nutq vositasida yakka shaxs yoki jamoa bilan munosabatda bo'lishga qaratilgan san'atlarni, quyidagicha jadvalga tushirish mumkin.

Qiroatxonlik nazmiy yoxud nasriy manbadan yoki yoddan ifodali o'qish san'atidir.

²⁰ O'sha kitob.134b.

NUTQIY SAN'ATLAR

Og'zaki nutq

1.voizlik

2.notiqlik

3.suxandonlik

4.qissago'ylik

5.roviylik

6.badihago'ylik

7.askiyachilik

8.maddohlik va hokazo.

Yozma nutq

1. dabirlik

2.kotiblik

3.munshiylik

(mirzolik) va hokazo.

.

III. BOB. NUTQIY MAHORAT

Ommaviy axborotda nutqiy mahoratning talabu mezonlari bor. Ayni paytda har bir axborot vositasining imkoniyatlari, ifoda vositalari mavjudki, ular nutqiy mahorat bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Ommaviy axborot tasvir, ovoz, musiqa va shovqin kabi ifoda vositalari orqali maqsadga xizmat qiladi. Undagi ma'lumot kurish va eshitish orqali qabul qilinadi.

Ba'zan «ommaviy axborotda tasvir birlamchimi yoki nutq?» — degan savolga duch kelasiz. Har ikkalasining muhimligini inkor etmagan holda, ta'kidlash joizki, tasvir asosiy o'rin tutsa ham, gap har ikkovidan — nutqdan, tasvirdan qanday foydalana olishda. Shunday holatlar bo'ladiki, biri ikkinchisining o'rnini bosolmaydi. Nutq bu nutq, tasvir esa tasvirdir. Nutqsiz tasvir baribir tugal fikrni, hukmni berolmaydi. Tasvir aslida, manzarali tovushsiz nutqdir. Fikrning aniq, tugal tez yetib borishi nutq madaniyatini qay darajada egallashga bog'liq. Ayniqsa, faoliyatini o'qituvchilik bilan bog'lagan kasb egalari nutqiy madaniyatga alohida e'tibor qilishlari zarur.

Til nutq, yozuv o'zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og'zaki va yozma nutqning asosiy manbaidir. Ommaviy axborot va maktab ommaga muayyan til, og'zaki nutqning jozibasi, boyligi va nafosatini namoyon etuvchi, yetkazuvchi asosiy vosita va manbalardandir.

Nutqiy mahorat ham amaliy, ham nazariy masaladir.

Ommaviy axborotda nutqiy mahorat nutqiy madaniyatni, nutq texnikasini egallash bilan chegaralanmaydi. Uning to'laqonli chiqishiga xizmat qiluvchi boshqa omillar ham bor. Notiq yoki suxandonning o'zini tutishi, qarashi, yuz-ko'zidagi imo-ishoralari (mimika), soch, yuz, ko'z, lab, bir so'z bilan aytganda, «pardoz-andoz»i, ko'rinishi, qiyinishi ham matn ruhiga muvofiq tushishi kerak. Bularsiz matn mazmunini to'la anglash, anglatish qiyin. Xullas, boshlovchi, o'qituvchining o'ziga va so'ziga e'tibori doimo diqqat markazida turishi kerak. Nutqqa xizmat qiluvchi bu omillarning birontasida yetishmovchilik sezilsa, boshlovchining psixikasiga ta'sir etadi, o'zini o'ng'aysiz sezadi.

«Dunyodagi jamiki narsalar go'zallik qonuniyatlariga asoslanib yaraladi» degan mashhur hikmatni hech istisnosiz boshlovchilik mahoratiga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Boshlovchining so'zi, fikri, nutqi boy, go'zal xalq tilininghusnini namoyish etgani singari uning o'zi ham yoqimli, yarashikli va odmi qiyingan bo'lishi lozim.

Nutqiy mahorat bu oddiy nutq emas, balki fikrni sodda vachiroyli ifoda eta olishdir. Chinakam notiqlar, notqlik san'atini egallagan iqtidorli notiqlargina nutq bobida mahorat qozonishlari mumkin. Nutqiy mahoratga ega bo'lgan notiqnlarni haqiqiy notiq desa bo'ladi.

Ayrim odamlar ko'p so'zlaydilar. Illo, ularning so'zlaridan hosil bo'lgan «g'aram»ni kovlab ko'rsangiz somoni ko'p-u boshog'i oz bo'ladi. Allomalar bunday kimsalar haqida shunday deyishgan:

So'zni saqlab so'zlaganlar xub bilur so'z qadrini,
Farqi yo'q ko'p so'zlaganlar na bilur o'z qadrini...

Nutq madaniyati notqlik bilan bevosita aloqador bo'lsa ham, bular bitta tushuncha emas. San'at ma'nosidagi notqlik nutq madaniyatining eng yuqori nutqtasidan boshlanadi. Xalq orasida so'zga chechan, gapni do'ndiradigan kishilar bor. Ularda notqlikning uchqunlari borligini inkor etib bo'lmaydi. Ular so'zga, nazm va askiyaga zavqi bor odamlardir. Muayyan ma'rifiy maqsad yoki mavzuni umumlashtirish, kompozitsion yaxlitlikda taqdim eta olish salohiyati ularda unchalik shakllanmagan bo'ladi. Lekin, notqlik san'atining nazariy asoslarini puxta o'rganib malaka va tajribaga ega bo'lishsa, ulardan yaxshi notiq chiqishiga shubha yo'q. Hozirda nutq va notqlik tushunchalari o'zlarining asliy ma'nosida qo'llanilmayapti. Har qanday so'zlovchi, minbarga chihuvchiga notiq, ma'ruzani «notqlik namunasi» deb atash rasm bo'lmoqda. Bu noto'g'ri, albatta. Har bir so'z, terminning o'z ma'nosi, qo'lanilish doirasi bor. Qo'lga qalam ushlagan har qanday kishi notiq, yozuvchi yoki shoir bo'lavermaganidek, xalq oldida ma'ruza o'qigan har qanday odam ham notiq sanalavermaydi. Notqlik noyob iste'dod. Bunday kasb egalari azaldan ardoqlanib kelingan. Nutqiy chechanlik — tug'ma qobiliyat. Uni insonga yuqtirish, o'rgatish mushkul. Notiq takrorlanmas nutqiy

mahorat egasi. Notiqlik tinglovchi e'tiborini tortish asnosida chiroyli gapirish va mahliyo etish san'atidir. «Notiqlik, avvalo, chiroyli gapirishdir. Ammo nutqning faqat chiroyli bo'lishi ham yetarli emas, har qanday bema'ni safsatlarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi».²¹

Notiqlikka qarash, uni baholash ham turlicha bo'lgan. «Notiqlik nutqi deganda, men har qanday monologik og'zaki nutqni emas, balki tinglovchilarni ma'lum xarakterga chorlovchi yoki ularda qandaydir g'oyalar, tasavvurlar tizimini uyg'otishga qaratilgan, maxsus vazifa bajaruvchi nutqni tushunaman, — deb yozadi G. Vinokur, ...xuddi yozma nutq kabi notiq nutqi ham nutqiy jarayonga ongli munosabatda bo'lishlik bilan xarakterlanadi, ammo bu onglik gapdagi til vositalarining lug'aviy-grammatik, sintaktik muxtasar tuzilishida emas, balki nutqning qarshi ekspressiv sifatlarida ko'rinadi. Bunga u yoki bu uslubga xos talaffuz, ohang, ritorik figuralar va shu kabilar kiradi. Notiqlik nutqi sintaktik nuqsonlar, murakkabliklardan xoli bo'lar ekan, bu o'sha tashqi ifodaviylik holatlari tufaylidir».²²

Notiqlik —bu nutqning og'zaki shakli. Notiqlik nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni etkazishni, ularni ma'lum maqsadlarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Notiq nutqi bir-ikki kishi uchun emas, keng auditoriyaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga unda nutqning mazmuni, mantiqiy Asoslariga ,mundarijaviy tuzilishiga diqqat qilinadi.²³

Notiqlikda notiq oldindan qanday so'zlash, nimadan boshlab, nimadan tugatish rejalarini tuzib olishi rasm emas. U guyo tayyorgarlik ko'rilmagan nutqqa o'xshaydi. Unda badihago'ylik,hozirjavoblik ustunlik qiladi. Notiqlik san'atining taraqqiyotiga sharhu g'arb notiqolari nazariy va amaliy faoliyatlari bilan salmoqli qissa qo'shishgan. Har bir notiq o'z nutq uslubiga, o'ziga xos bilimga, o'zini tuta bilish, omma bilan til topisha olish mahoratiga ega bo'lishgan.

Notiqlik eramizdan oldingi V asrda Yunonistonda shakllangani haqida fikrlar bor.²⁴

²¹ Sodiqova M.Jo'rayeva J. "So'zdan so'zning farqi bor" T. "Fan" ,1966,7-8 b.

²² "Культура языка" 1929, str.81-82,175b.

²³ R.Qo'ng'urov ,E.Begmatov,Y.Tojiyev. "Nutq madaniyati va usluboyat asoslari" , T. "O'qituvchi" ,1992,143b.

Bizningcha, bu nisbiy gap. Sababi, eramizdan avvalgi VI asrdayoq Xorazmda Zaratushtra asos solgan otashparasglik dini hukmron mafkura davrida «Avesto»ning targ'ibu tashvihotchilari mug'lar (diniy voizlar) so'z va nutq qudratini namoyish etganlar. Olovxonalarda, otashkadalar atrofida jozib nutq va xarakatlar orqali ular mahoratlarini ko'rsatishgan. «Avesto» ta'limoti g'oyalarini omma ongiga singdirishda jonbozlik qilishgani rost.

Yunon olimi Plutarx bu san'atni «hayotiy zarurat taqozosi», —deb bilgan. Davlat ishlari, xalq majlislari, senat kengashlari, sud ishlari va yig'ilishlarda erkin nutqning o'z o'rnini bo'lgan.

Notiqlik san'atining nazariyasidan iborat bo'lgan «Ritorika» ilmi vujudga kelgan. Bu borada Aristotel, Sitseronlarning xizmatlari katta bo'lgan. Sharqda esa Xusayn Voiz Koshifiy, Voiz Muhammad Rafi, Voiz Kazviniy, Voiz Shirvoni, Qozi O'shiy kabi nutq ilmdonlari va amaliyotchilari notiqlikning turli shakllari paydo bo'lishiga hissa qo'shganlar. Diniy notiqlikdan tashqari, xarbiy notiqlik, sud notiqligi, siyosiy notiqlik va epideyktik notiqlik turlari yuzaga kelgan.

Til qoidalaridan to'g'ri foydalanish asosida mantiqiy fikr aytish nutqiy madaniyat, o'sha fikrni chiroyli, burro talaffuz, ohangdor va jarangdor ovoz bilan yetkazish nutq texnikasidir.

Bu ikkala jihatning yaxlitligisiz nutqiy mahoratni tushunish qiyin. Ba'zi notuqlarning tafakkur tarzi, saviyasi, dunyoqarashi, masala mohiyatini nozik ilg'ashi, fikriy munosabati ibratli, lekin diksiyasi, ovozi, talaffuzi maqtovga sazovor emas. So'zlarni to'liq talaffuz qilmaslik, «yamlash», Ayniqsa, «r» sonorining talaffuzidagi noaniqlik, chuchuktilik kabi holatlar tuzatilsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Unli fonemalarning tilning ko'tarilish darajasi hamda labning ishtirokiga ko'ra, xususiyatlarini bilish, undosh fonemalarning ovoz va shovhin ishtirokiga, hosil bo'lish usuli va o'rniga ko'ra sifatlarini bilish foydadan xoli bo'lmaydi. Bunga tinimsiz mashq, muntazam shug'ullanish orqali erishiladi.

²⁴ Q.Oripov. M.Obidova . "Ifodali o'qish" . "O'qituvchi", 1994,11b.

NOTIQ NUTQI JILOLARI

Nutqiy mahorat nutq sohibining matnga hamda shu matn asosida tinglovchi, tomoshabin yoki o'qiuvchiga og'zaki yoxud yozma shakldagi murojaati bilan reallashadi. Ana shu murojaat, munosabatga yuqori darajadagi e'tibor esa notiqning iste'dodidan dalolatdir.

3.1. NUTQNING ANIQLIGI - FIKRNING TINIQLIGI

Nutqning to'g'riligida uning til xususiyatlari asosiy e'tiborga olinsa, nutqning aniqlig'ida esa tilga bevosita bog'liq bo'lmagan omillar ham asos bo'ladi. So'zning o'zi ifoda etayotgan narsa-hodisaga mos va muvofiq kelishi bu aniqlik demakdir. Lisoniy birlik bilan u ifodalayotgan voqelik o'rtasida moslik, u aytuvchi va eshituvchi (qabul qiluvchi)ning bir xil tushunishidagi yaqinlik bilan izohlanadi. Aks holda «inson tafakkurining eng yuksak nutqlari, eng chuqur bilimlari so'zda aniq va ochih-oydin ifodalanmagan bo'lsa, ular baribir odamlarga noma'lum bo'lib qolaveradi. Bizning aytadigan fikrimizning boshqalar tomonidan qabul qilinishiga erishishdan iboratdir. Qabul qilish esa, ko'p jihatdan bizning o'z nutqimizni qanday ifoda qilishimizga bog'liqdir».²⁵

Nutqning mantiqiy bo'lishi bu faqat til hodisasi emas, balki tafakkur dialektikasi bilan ham bog'liqdir. Mantiqiy fikr yuritish uchun esa, keng qamrovli bilim ham kerak. Shuning uchun ham, N.G.Chernishevskiy «nimani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish fikrlar chigalligidan dalolatdir», — deyishi bilan haq edi. So'ylab turib o'ylash, fikr yuritish va uni yetkazish o'qituvchi nutqining muhim omillaridandir. So'z birikmalari o'rtasidagi grammatik aloqani his etmasdan aytishlik eshituvchiga malol keladi va mantiqni buzadi.

Ba'zi hollarda notiqlar muloqot mavzuini chuqur bilmasdan, fikr ifodalashda qiynaladilar va odatga aylangan ushbu so'zlarni ishlatadilar. Ms: «Xo'sh, haligi, anaqa, o'sha, nimaydi, deylik, demakkim» va h.k.

²⁵ A.Ahmedov. "Til boyligi" T.1968,8b.

Bular tilshunoslikda «parazit soʻzlar» deyiladi. Nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi bunday soʻzlarni qoʻllamaslik uchun mavzuni sinchiklab oʻrganish va nutqiy mashqlar qilish lozim. Nutq tozaligiga salbiy taʼsir etuvchi holatlardan biri vulgar(qoʻpol) soʻzlarni istifoda etishdir. Qargʻish, haqorat maʼnolarini anglatuvchi bunday soʻzlar oynai jahon orqali namoyish etiluvchi badiiy film va spektakllarda qahramon qiyofasini, sajiyasini, ruhiy holatini ochishda baʼzan qoʻllaniladi. Allomalardan biri «tilning tozaligi, maʼno aniqligi va oʻtkirligi uchun kurash madaniyat quroli uchun kurashishdir. Bu qurol qanchalik oʻtkir, qanchalik aniq yoʻnaltirilgan boʻlsa, shunchalik gʻolib boʻladi», — degan. Nutq tozaligiga erishish uchun notiq ogʻzaki nutq madaniyati va nutq texnikasini yaxshi bilishi va unga amal qilishi zarur boʻlgani holda oʻz nutqini nazorat qilib, oʻzgalar nutqi bilan solishtirib borishi kerak.

Joʻyalilik

Joʻyalilik qaysidir maʼnoda nutqning boshqa xususiyatlarining samarasini soʻzlovchi va qabul qiluvchi oʻrtasidagi munosabatni anglatadi. Agar bu xususiyat boʻlmasa, ikkala tomon orasidagi munosabat toʻla anglashilmaydi. Anglasqilgan taqdirda ham, butunlay noxush, teskari holat yuz beradi.

Soʻzni topib, tanlab, oʻz oʻrnida aytilishini taqozo etuvchi bu sifat soʻzlovchining didi, xarakteri, omma bilan muomala qila olishiga bogʻlik. Shu sababli nima deyishlikdan koʻra, nimademaslikni bilish ham muhim, har bir soʻzning jumladagi oʻrni til hodisasi boʻlsa, uning muayyan davrada qanday aytilishi etik-estetik va psixologik hodisadir. Har bir soʻzning, nutqning oʻrnini bilish, aslida, auditoriyadagilarning saviyasi, kasbi,qiziqishi, jinsi, yoshi singarilarni eʼtiborga olishdir. Shuning uchun ham aytilmoqchi boʻlgan soʻzning, nutqning oʻz uyasi boʻladi. Xuddi shu uyani anglagan soʻzlovchi eʼtibor qozonadi, obroʻ topadi. Aks holda, kulgili, ayanchli holatga tushadi. Auditoriyada oʻngʻaysiz vaziyat tugʻiladi.

Soʻzning oʻz oʻrni, vazni, boʻy-basti, oʻlchovi, hajmi, hidi bor. Uni didi borlarga anglashadi.

Shunday ekan, ma'lum sharoitlarda so'zning, nutqning o'z egasi bo'ladi. E'tibor qiling. Katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, nuroniy kishilar orasida yosh notiq "umr mazmuni" mavzuida suhbat uyushtirsa, yoki bolalarga tajribali, keksa notiq "Oila, uy-ro'zg'or va turmush muammolari" mavzuida ma'ruza o'qisa qay darajada kulgili va yarashisiz bo'ladi.

JO'YALI NUTQ, - UYALI NUTQ,

«Oila, uy-ro'zgor va turmush muammolari» mavzuida ma'ruza o'qisa, qay darajada kulgili va yarashisiz bo'ladi. Xatto, shunday sharoit bo'ladiki, chin so'zni aytish joiz emas. Faqat sukut orqali javob berish mumkin. Alisher Navoiy "Xiradmand chin so'zdin o'zgani demas, vale barcha chin ham degulik emas" - deganida, shuni nazarda tutgan bo'lsalar kerak. Shoir Shuhrat:

Har so'zning o'rni bor, ba'zan ko'rku zeb,

Ba'zida nam o'rik o'tidek so'nik.

Qabriston qoshiga xush kelibsiz deb,

Yozilsa, qandayin bo'lardi xunuk — deyishi bilan haq.

Nutqning jo'yaliligi deganda, so'zlovchi qaysi fikrni, qaysi davrada, qachon, qanday qilib, qay holatda, hay ohangda ayta olishi anglashiladi.

O'qituvchi nutqi esa dars kimlar uchun mo'ljallab tayyorlanganiga qarab tuziladi. Uning ohangi, yo'nalishi, munosabat tarzi shunga qaratiladi. Bolalar, o'smirlar, o'rta yoshga mos o'qituvchi va nutq tanlanadi. Shundagina maqsad anglashiladi, nutq jo'yali bo'ladi.

3.2 «CHIN SO'Z - MO'TABAR, YAXSHI SO'Z - MUXTASAR»

Alisher Navoiyning bu hikmati nutqning muhim sifatlaridan biri qisqalik haqida. Xalq nutqning qisqa bo'lishini odob belgisi deb bilgan. Uni ahloqiy mezonlar sirasiga kiritishgan. Maqollarga e'tibor qiling. «Ko'p o'yla, kam so'yla». «Izzat tilasang, kam de, sihat tilasang kam e». «So'zning ozi yaxshi, ishning sozi yaxshi» va hokazo.

Nutq qisqa shaklda ko'p mazmun anglatishga qaratilishi kerak. Nutqning qisqa bo'lishiga imkoniyat tug'diruvchi vosita borki, bu tasvirdir. Tasvir nutqsiz

ham mazmunni bir qadar anglatishi mumkin. Nutqning qisqa yoki kengligi mazmun ifodasi talabi.

NUTQ QOIDALARI - NUTQ FOYDALARI

Mashq, harakat, izlanish samarasi, hayot tajribasi notiqning mahorat qirralarini oshirib boraveradi. Uni charxlaydi, obdon toblaydi. Notiq uchun o'qish va o'qishdan, o'ylash va so'ylashdan to'xtash mamot masalasi.

Deni Didro ta'biri bilan aygganda, «Kimki kitob o'qishdan to'xtasa, bilingki, u fikrlashdan ham to'xtagan bo'ladi».

Notiqning doimiy hayot tarzi ham shunday. Kitob mutolaa etish, turmushni kuzatish, omma orasida jozib nutq irod etish, undan zavqu shavq olish va bera bilish, fikr etkazish, aniqrog'i, fikr o'tkazish va uyg'otishdan iboratdir.

Odamlar tabiatan har xil bo'lgani singari notiqlarning ijodiy faoliyati va o'z kasbiga munosabati ham har xil kechadi. Notqlikni qolipga solish qiyin. Notqlik omma bilan «til topishish», ta'sirli ma'lumot berish, fikr uyg'otish san'atidir. U ijod va ijrodir. Ana shu o'zaro chambarchas bogliq bo'lgan ikki birlik tarkibidagi qorishiq san'atdir.

Mas'uliyat hissi va majburiyat burchi

Har bir sohaning o'z mohiyati va hosiylati, mohir ustalari bo'lgan. Ular tajribasi, bosib o'tgan yo'llari ibrat maktabi. Maqbul notiqlar darrov minbarga, xalq istiqboliga oshiqmaganlar. Oldin o'zini shu ishga obdon tayyorlaganlar, o'z ustida ishlab, tinimsiz mashq va tajribalar o'tkazib, ustozlarning ilmu amallari va an'alarini o'zlashtirib, ma'lum bir malaka, ko'nikma hosil qilganlaridan keyingina amaliyotga o'tganlar.

Rivoyat qilishlaricha, bir shohning saroyida so'fiyona suhbatlar uyushtirib, ma'rifiy tadbirlarni o'tkazuvchi, halifa din va diyonat bobida amri ma'ruf qilish kabi ishlarni amalga oshiruvchi bosh maslahatgo'y — notiq, bo'ladi. Itgifoqo, u dunyodan o'tadi. Bu vazifani bajarishni hech kim zimmasiga ololmaydi. Xalq bu ishga qobil, marhum ustozning suygan bir shogirdi borligini bilardi. Uning oldiga borishadi. Bu ishga munosib, masjidida amri ma'ruf qilib ishonch qozona oladigan

yolg'iz o'zi ekanini aytishadi. U sermulohazakor, andishali, oqil yigit edi. Shunday debdi:

— Menga bildirgan ishonchlaringiz uchun rahmat. Ustozimdanilm bilan birga yana bir fazilatni qabul etganman. Bu — ishga mas'uliyat hissi va majburiyat burchi bilan qarashdir. Ustoz umri mobaynida ana shu aqidaga sodiq qolganlar. Shuning uchun ham doim el e'tibori va e'zozida bo'lganlar. Menga bir yil muddat berasiz. Men ustoz o'qib o'rgangan kitoblarni mutolaa etay, sohaning past-balandini kirib chiqay, —debdi.

Xaloyiq rozi bo'libdi. Oradan bir yil muddat o'tgandan so'ng yana kelishibdi. U jamoani sahroga boshlabdi. U yerda yolg'iz bir daraxt bo'lib, shox-novdalarida qushlar gujg'on o'ynayotganmish. Xaloyiqni qoldirib, daraxtga yaqinlashgan ham ekanki, qushlar guv etib havoga ko'tarilishibdi. Shogird qaytib kelib, «yana menga bir yil muddat berasizlar», —debdi. Xaloyiq, hayron, noiloj rozi bo'lishibdi. Bir yildan so'ng yana xuddi shu joyga to'planishibdi. Yigit ularni qoldirib, daraxt yoniga borib, qushlarga qo'lini cho'zgan ham ekanki, qushlar yana guv etib uchib ketishibdi. Yigit xomush holda ular yoniga kelib, yana bir yil muddat so'rab, hali tayyor emasligini aytibdi. Xaloyiq yigitning qilayotgan ishidan taajjubda. Yana indashmabdi. Oradan bir yil muddat o'tgach, yana o'sha manzilga yig'ilishibdi. Yigit tag'in shu holatni takrorlabdi: ularni qoldirib o'zi daraxtga yaqinlashibdi. Shoxdagi qushlarga qo'lini cho'zibdi. Hammasi unga itoat etib, qo'liga qo'na boshlashibdi. Qay birini u shoxdan olib bu shoxga qo'ysa, churq etmasmish. Yigit qushlarning har bittasini silab-siypalabdi, uchishga ishorat qilsa ucharmish, tushishga ishorat qilsa tusharmish. So'ng xaloyiqqa yaqinlashib debdi: — Endi meni masjidga boshlang, tayyorman.

Ular ajablanib, so'rashibdi: — Shu vazifaga rozilik berish uchun uch yilgacha cho'zish shartmidi?

Yigit: «Men yovvoyi qushlarni o'zimga rom eta olmasam, so'z bilan qahri qattiq, bag'ritosh odamlarning ko'ngillarini qanday yumshatishim mumkin», —deb javob bergan ekan.

Bu rivoyat har kasbning o'z talabu taqozosi va kasb egasining mas'uliyati, majburiyati bo'lishi hadidagi haqiqatni o'zida ifoda etadi.

MAHORAT MANZILLARI SARI

Aflotun zamonasidan beri kelayotgan bir rivoyat bor. Afinada yashab, dovrug'i jahonga yuz tutgan Platon (ya'ni, Aflotun)ning shogirdlaridan biri bahstlab masalalarda «unday emas, bunday» deb, ustozining yuz-xotiri demay, ro'y-rost gapiraverar ekan. Odamlar yig'ilishib, unga «sen qanday oqibatsiz shogirdsan, ustozingni ranjitasan, fikrini rad etasan, sening ulug' martabali bo'lishingda ustozingning o'rni bor-ku, axir», deyishsa, «to'g'ri, ustozim Aflotunning ta'limi, ilmi bo'lmaganda men bu darajaga erishmasdim. Ustozim men uchun buyuk ham suyuq. Lekin ne qilayki, haqiqat undan ham ulug'», — deb javob bergan ekan.

Aflotunning ko'plab shogirdlari haqiqatni e'zozlaguvchi, muqaddas tutuvchilardan bo'lgani rost. Ularning aksariyati ilm, amal va go'zallik qonuniyatlarining mohiyati haqiqatni ro'yobga chiqazishda deb bilishgan. haq so'zni go'zallik suvratu siyratida ifoda etishni mahbul ko'rishgan. Xuddi shunday aqidaga sodiq qolgan shogirdlaridan biri Aristotel(Arastu)dir. O'n yetti yoshidan boshlab Aflotunga shogirdlikka kelgan Arastu ko'p ilm va haqiqat sirlarini ochishga erisha olgan.

Taqdir taqazosi bilan aslida Makedoniya yarim orolidagi Statirda tug'ilgan bo'lsa-da, u Afinada, so'ng Lesbos yarim orolidagi Mitilen shahrida yashaydi. Ota kasbi shifokorlik, lekin u bu yo'ldan bormaydi. So'z, nutq ham inson ruhiyatini davolovchi vosita ekanini anglab yetadi. Inson insonga so'z bilan malham bo'lishini tushunadi. Umrini ana shu yo'lga bag'ishlaydi.

U Yunonisgonda yashagan paytlarda chiroyli so'zlash, fikrni go'zal ifoda etishga intilish kuchaygan davr edi. Xatto, shohlar ham o'z farzandlarining tarbiyasida xuddi shu usulni yetakchi mezon qilib olishgandi. Aristotel ham ana shu xizmat sabab Mitilen shariga kelib shoh Fillipning 13 yashar o'g'liga saboq berishni boshlagandi.

Chiroyli so'zlash san'ati bo'yicha qo'llanmalar yaratish, notiqlik maktablari ochish an'anatusini olgandi. Aristotel ham uch kitobdan iborat «Ritorika» nomli asar yaratdi. Bu shu yo'nalishda yaratilgan asarlarning eng sarasi edi.

“Ritorika”ning birinchi va ikkinchi kitoblari chiroyli so'zlash san'atining mohiyati va ishonitirish san'ati bilan uyg'un jihatlari borasidagi mulohazalardan tarkib topgan bo'lsa, uchinchi kitob inson nutqining mantiqiy qudrati bilan aloqador masalalarni oydinlashtirishga qaratilgan edi. Uning bu boradagi mulohazalari hozirgacha ham o'z qiymatini yuqotgan emas. Aristotel notiqning ko'rinishidan boshlab so'zlashi, mulohaza yuritish manerasi, harakat va holatlar barchasi asosiy mavzuni ochishga xizmat qilishini uqtirib o'tadi. Nutqning ta'sirchanligi, notiqning hissiyot bilan so'zlashi, ortiqcha tafsilotlarga berilmaslik, me'yorni saqlay bilishlik, har xil qiyosiy misollardan, ko'rgazmali tasvir vositalaridan foydalanish notiq muvaffaqiyatining garovi ekanini ham ta'kidlab o'tgan.

Notiqning nutqiy jarayoni besh bosqichdan iborat bo'lishini o'rinli qayd etib o'tadi.

1. Mavzuga kirishish (har tomonlama o'rganish).
2. Mavzuning tartini tuzish. Reja tayyorlash.
3. Mavzuni yodga olish. (to'la o'zlashtirish).
4. Mavzuni og'zaki nutq orqali ifoda etish.
5. Mavzuni aniq va to'g'ri talaffuz orqali yetkazish.

Aristotelning ushbu «qolip»i qancha davr, asrlardan beri deyarli o'zgarishsiz istifoda etib kelinmoqda. U asosan, notiqlik san'atining nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lsa-da, uning yetuk amaliyotchi bo'lganini ham anglash qiyin emas.

Qay zaminda bo'lmasin, insoniyatning ma'naviy-ruhiy ehtiyojini qondiruvchi, ma'rifiy bilim beruvchi notiqlik san'atiga xos shakl va uslublar yashovchandir. Aristotel birinchilardan bo'lib, ana shu haqiqatni ilm, amal va go'zallik qonunlari bilan uyg'un ifoda eta olgandir.

Maqsad manzili

Maqsad manziliga har kim har xil yo'ldan, turli vositalar yordamida boradi. Tanlangan yo'l, vosita maqsad egasining imkoniyati va iqtidoriga bogliq. Katta kuch, sonsiz lashkar va cheksiz qurol-yarog' bilan amalga oshirish mumkin bo'lmagan yumushni bitta kishi ham uddasidan chiqishiga tarix guvoh. Qilich o'rnini qalam, o't o'rnini til bosishi, nafaqat egallashi, balki sharaf bilan ado etishi mumkin. Shoirning Navoiy hazratlari haqida «Temur tig'i yetmagan joyni, qalam bilan oldi Alisher» deyishi bejiz emas. Navoiy hazratlarining pand-nasihatga yug'rilgan mav'izalarida, Bobur mirzoning harbiy-jangovarlik xarakteridagi nutqlarida xuddi shu holatni kuzatish mumkin.

Hozirgi zamonda «mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan katta kuchga ega»ligi yaqqolroq namoyon bo'layotgani sir emas. Dunyoni so'z «ushlab» turgani rost. Bir kun mafkura to'xtasa, ertasigayoq to'plar ishga tushishi aniq bo'lgan ayni davrda til, so'z, nutqning qudrati haqida deyilganlarni eslash o'rinlidir.

Qulfni mos va xos kalit bilan ochish lozim bo'lganidek, ko'ngilni ham xos voiz mos so'z bilan ocha oladi.

Eronning janubiy qismida Seyiston degan bir makon bor. Mahalliy aholining aksariyati jizzaki, lazfi qattiq, birovga bir narsa berishni xush ko'rmaydigan baxil ekan. Qozi O'shiy o'z davrining mashhur notiqlaridan edi. U o'sha yerlik xalqning fe'l-atvoridan xabardor edi. Hukmdorlardan biri borish behuda ekanini tushuntirsa ham jahd aylab ko'ngil qulfini so'z kaliti bilan ochib, ular ko'ngliga yo'l topa olaman, deb yo'lga ravona bo'ladi. Seyistonga yetib kelgach, aytilgan so'zlarning haqiqat ekaniga imon keltiradi. Ishni bozordan boshlaydi. Xalqning savdo-sotiq bilan bog'liq ruhiyatini o'rganishga kirishadi. O'rtahol bir kishi bilan tanishib, unga yetarli miqdorda pulberib o'ziga o'rgatib oladi. Unga savollar berib, mahalliy aholining nimalarga qiziqishi, yashash sharoitlari haqida ma'lumotlar to'playdi. Omma ruhiyatini obdon o'rganadi.

Oradan ikki hafta o'tgandan so'ng, jamoani yig'uvchi ishonchlikishilarni ishga solib hammani jamlaydi. U asta minbarga ko'tariladi. O'zini g'arib,

aftodaqol qilib ko'rsatadi. Minbarda mahalliy aholiga o'zini so'z va xarakatlar yordamida yaqqol ko'rsata boshlaydi. Xalq minbardagi voizning xatti-xarakatlarida, o'z qilmishi va yashashiga, ruhiyatiga daxldor manzarani ko'rib, xijolat torta boshlaydi. Kishiga o'zganing aybi ko'rinib, o'zining aybi har doim ham ko'rinavermaganidek, ular o'z «basharasini oynada ko'rib o'pkalashlariga» hojat qolmaydi.

Ana shundan keyingina Qozi O'shiy asosiy maqsadga ko'chadi. U minbarda so'zlayotganida ovozi dam ko'tarilib, dam pasayib ommaning e'tiborini o'ziga tortib, jamoani tamomila rom etib borardi. Qozi O'shiy o'ziga inkor ko'zi bilan qaragan jamoada faqat tasdiq va hayrat alomatlarini ko'rib zavqlanadi. Bir payt qarasa, jamoa u kulsa kular, yig'lasa yig'lardi. Zum o'tmay, so'zdan sehrlanganlar voizning minbari oldiga pul, taqinchoq va shunga o'xshash narsalarni yig'ishadi. Nutq tugagach, to'plangan narsalar besh ming dinor hajmida bo'ladi. Qozi O'shiy uning teng yarmini kambag'al, yetim-yesir, beva-bechoralarga ulashadi. Voizga bo'lgan e'tibor va ehtirom yanada oshib ketadi.

Til, so'z, nutq, tovush, harf singari lisoniy birliklarni his qilish, uning ta'sir kuchini anglash va anglatish, ularni g'oyaviy maqsad nuqtai nazaridan mohirona qo'llash doimo adiblarning diqqat markazida turgan. Biron so'z san'atkori yo'qki, til, nutqqa e'tibor qilmagan bo'lsin.

Hatto, diniy ta'limotda dunyoning yaralishi va tugashini ham so'z bilan bog'lash mavjud. Parvardigorning «Bo'l» degan xitobi bilan o'n sakkiz ming olam yaralgan. Uning kunfayakun bo'lishi ham so'z bilan deyiladi. Demak, so'z — ilohiy ne'mat. Uni muqaddas tutish, kalom ahlini e'zozlash azaldan mavjud.

So'zning sehrini unga mehr qo'yganlar yaxshi anglashadi.

Xo'sh, mutafakkir shoir Alisher Navoiyning xuddi shu masalaga munosabati qanday? Shu haqda mulohaza bildirmoqchimiz.

Navoiyning ijodiyoti aslida so'z qudrati va nafosatini, boyligi va mo'jizaviy kuchini namoyon etuvchi ko'zgudir. U ayrim asarlarida so'z haqida, uning hosiylati va nutqning mohiyati borasida alohida to'xtalib o'tgan. So'zning ijtimoiy

hayotdagi o'zni va insonning o'zligi so'zi bilan bog'liqligini shoirona tashbehlar bilan izohlaydi.

So'z durki, nishon berur o'lukka jondin,

So'z durki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo xayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq, yo'q, ondin.

Shoir boshqa bir o'rinda «Ko'ngul durji ichra guhar so'z durur, Bashar gulshanida samar so'z durur» —deydi. «Guhari sharif»lik darajasida ta'riflangan so'zga Navoiyning munosabati ayricha. Insonning so'zlagan so'ziga qarab, uning ma'naviyati, ruhiy olamini anglash mumkin. Shuning uchun ham xalqning «o'zingga qarab kutarlar, so'zingga qarab kuzatarlar» degan naqli behuda aytilmagan. Har kim so'zlashi, nutq irod etishi mumkin. Lekin uning saviyasi, bilimi, dunyoqarashi, tuzihishi, botiniy dunyosi go'zal bo'lmasa, so'zi mazmunli, nutqi jozibali bo'lishi qiyin.

Navoiy nutqni bahorga, so'z ma'nosini esa, gulga qiyos qiladi. Gul bahorning kelgani, iforiy islarga boyligini anglatadi. Gulning bo'yidan bahramand bo'lish dilda ajib hislarni uyg'otadi. Bahor anvoyi gullar bilan go'zal. Qog'oz gul ko'zni quvontirar, lekin u xushbo'y hiddan bebahra. Xuddi jimjimador so'z ma'nodan yiroq bo'lgani kabi. Demak, nutqdan ,so'zdan maqsad ma'no. Ma'no — so'z toji. «So'zlash ixtiyori menda» qabilida ish tutish ham har doim yaxshilik keltiravermaydi. Serso'zlik laqmalik nodonlik alomati. «Aytuvchi dono bo'lmasa ham, eshituvchi dono bo'lsin» degan gap zamirida ham shu ma'no bor. Ahli donishlarning biridan so'rashibdi: «Qanday qilib donishmand bo'ldingiz?» U debdi: — Tinglab, tinglab va yana tinglab.

Qolaversa, qisqa lekin ma'noli so'zlash odob belgisi. Mana, Navoiyning shu haqdagi fikri:

Har kimsaki, so'z demak shiorida durur,

Ma'no guli nutqining bahorida durur.

So'z kim, demasun ulki ixtiyorida durur,

So'z yaxshiligi chu ixtisorida durur.

Qisqa soʻz va koʻp maʼno anglatish badiiylik mezonlaridan. Navoiy nutqning qisqaligi va soddaligi notiq fazilati ekanini uqtirib qolmasdan, balki soʻzga munosabat borasida oʻtmish allomalarning shu haqdagi fikrlariga tayanadi. Kaykovusning «Qobusnoma»sida «Koʻp bilib oz soʻzlagil va kam bilib koʻp soʻz demagil. Nima uchunki, aqlsiz shundogʻ kishi boʻladur-u koʻp soʻzlar. Debdurlarki, xomushlik salomatlik sababidur, chunki koʻp soʻzlaguvchi oqil kishi boʻlsa ham, avom uni aqlsiz derlar». («Meros» nashriyoti., 1992 y. 35-bet.)

Navoiy nazdida, soʻzga oʻta ehtiyotkorlik zarurki, nojoʻya soʻz noxush holatga sabab boʻlishi, bir soʻz bilan kishi dili xira boʻlishi mumkin. «Soʻzlagandan soʻzlamagan yaxshiroq, soʻzlagandim tegdi boshimga tayoq» xalq naqlini Navoiy boshqacha tarzda ifoda etadi, tanbeh beradi. Soʻzning oʻrni sir. Uni bilish, amalda qoʻllay olish zarur. Soʻz sanʼatkorlari soʻzlashdan oldin oʻylash, yaʼni topish, tanlash va qoʻllashda aql-idrok, fahm-farosat lozimligini doim eʼtiborda tutishgan. Soʻz bilan kishini shod etish, barbod etish ham mumkin. Navoiy nutq egasini tilga eʼtibori va masʼuliyatini kuchaytirib, oʻrinsiz soʻz boshga balo boʻlishi muqarrarligini eʼtirof etadi.

Soʻzdan kishining ramu balo qosilidur,

Har nuktada tili desa, balo doxilidur.

Besirfa degan kishiga tili qotilidur,

Alqissaki, kimsaning balosi tilidur.

Navoiy shu oʻrinda mazkur rivoyatga ishora qilgan boʻlsa ajab emas. Bir kuni shoh oʻng qoʻl vaziri bilan shikordan qaytib kelayotganida, pastqam bir uyning oldida beli bukchaygan, hassaga tayangan koʻyi bir qoʻli oldinda tilanchilik qilib turgan qariyaga koʻzi tushadi. Shoh vazirga ishora qilib deydi:

— Hu anovi moʻysafidni koʻyapsanmi? Bizlarga yoshligimizda saboq bergan Ali Safiy degan ustozga juda oʻxsharkan-a?

Vazir: —Oʻsha qariya Ali Safiyning xuddi oʻzidur, — dedi.

Shoh dargʻazab boʻldi: —Men yurt hukmdori, sen vazir boʻla turib, bizga alifbodan saboq bergan ustozimizning shunday kuyga tushishiga sabab ne?

— Men ustozga ko'p bor maslahat soldim, unamadi. Yaxshisi, o'zingiz borib so'rang, —dedi vazir.

Shoh otdan sakrab tushib, Ali Safiy hazratlarining oldigaborib, ko'rishdi.

— Ustoz, bu ahvolotingizning boisi nedur? —deb so'radi.

—To'g'ri, — o'smoqchilab so'z boshladi ustoz, — men sizlarga chin dildan, chin so'zdan saboq berdim. Menga ham saboq bergan ustozlar ko'p bo'lgan. Ular ichida ikkitasi meni xush ko'rib, doim ardoqlab yurardi. Biri nima deyishni o'rgatardi, ikkinchisi esa nima demaslikni. Nima demaslikni bilaman-u, nima deyishni o'rganishim kerak,—deb, birinchi ustozga qo'l berdim, oqibatda shunday kuyga tushdim. Keyin anglab yetdim: nima deyishdan ko'ra, nima demaslikni bilish donolik ekan.

Navoiy o'gitlaridan biri shunday; «So'zni ko'ngulda pishirmaguncha tilga kelturma, har nekim ko'ngulda bor, tilga surma». Anglashilayaptiki, zarur so'zdan ham eng zarurini ayt, uning ham hojati bo'lsa, degan mazmun Navoiy talabi.

Ulug' mutafakkir nutqning xususiyatlari — qisqalik, soddalik, mantiqiylik va ta'sirlilik haqida fikr bildirar ekan, uning qanday aytilishi, ya'ni qay so'zni qay ohangda ifodalanishiga ham diqqat qiladi. Ma'lumki, «Nurnoma» risolasida parvardigorning yetti daryo yaratgani borasida so'z ketadi. Ulardan biri ilm daryosi, ikkinchisi hilm daryosi deya e'tirof etiladi. Birinchisi anglash bo'lsa, ikkinchisi mayin, muloyimlik demakdir. Halimtabiatli kishi yumshoq, kishi diliga ozor yetkazmaydigan so'zni topib aytadi. Shuning uchun ham kimdir topib so'zlaydi, kimdir qopib deyishadi. Bu, albatta, insonning fe'l-atvori, sajiyasi bilan bog'liq. Kaykovus «sovuq so'z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo'lur» deyishi bilan haqli. Navoiy xuddi shu fikrlarni to'rtlik shakliga keltirib quyidagicha taqdim etadi.

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,

Har nechaki ag'yor durur, uni yor aylar.

So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,

Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.

Ilonning inidan, pichoqning qinidan chiqishiga ham qaysi soʻzni qanday aytilishi sabab. Mashhur voizlarning biridan «el ichra eʼtiboru ehtirom qozonishingizning boisi nimadan?»— deb soʻraganlarida, u «qaysi mavʼizani qaerda, qachon, qanday qilib eng muhimi, qancha aytishni bilganligim hamda amal qilganligim uchun boʻlsa kerak», — deb javob bergan ekan.

Alisher Navoiy soʻzga munosabatni tirik jonzotga munosabat tarzida anglaydi. Tanlangan va aytilgan soʻz nishonga qanday borishi, qanday samara berishi u uchun muhim. Oʻzining hayotiy va ijodiy faoliyatida shunga amal qilib yashagan sheʼriyat sultoni mulohazalari biz uchun ibratlidir.

Jahon boʻylab xalq, qalbi, ongi uchun kurash keskin davom etayotgan ayni paytda mafkuraning manbai boʻlgan til, nutq, soʻz hodisasiga oʻrinli munosabat zarur. Mustaqillik gʻoyalarini targʻib-tashviq etishga intilgan har qanday voiz, notiq, uni puxta bilishi, unga amal qilishi bugunning talabi.

Zero, Navoiy hazratlari aytganlaridek, «Koʻngul maxzanining qulfi til va ul mahzanning kalidin soʻz bil».

UMUMIY XULOSALAR.

Notiqlik uzoq, tarixiy jarayonni bosib o'tgan, ayni paytda yondosh san'atlarning rivojiga samarali ta'sir o'tkaza olgan, o'z turlari, shakl va uslublariga ega bo'lgan, har xil g'oya va maslaklarning ifoda tarziga aylangan so'z, nutq san'atidir. Mashriq mag'ribda mashhur bo'lgan notiqlarning aksariyati amaliyotchi hamda nazariyotchi bo'lganligi bu san'atning taraqqiy etishiga omil bo'lgan.

So'z va nutq vositasida yakka shaxs yoki jamoa bilan munosabatda bo'lishga qaratilgan kasb egalari —notiq, muxbir, sharhlovchi, huquqshunos, advokat, o'qituvchi, ma'ruzachilar uchun nutqiy omillarni puxta bilish, amalda qo'llay olish keng imkoniyatlar yaratadi.

Nutq madaniyatining uzviy qismi og'zaki nutqning kulminatsion nuqtasida ijodiy va ijroviy faoliyatning hosilasi sifatida yuzaga kelgan notiqlikning ijtimoiy hayotdagi o'rni beqiyos bo'lgan. Ayniqsa, uning siyosiy, huquqiy, harbiy, diniy, sud notiqligi kabi ko'rinishlari ijtimoiy tuzumga, idora usuliga ham o'z ta'sirini o'tkazganligi rost. Boshqaruv tizimida xonu amirlarning vazifasi qanchalik muhim bo'lgani singari omma orasida tushuntirish va targ'ibot ishlarini amalga oshirishda ularning roli ham shunchalik zarur va ahamiyatli bo'lgan.

Notiqqa xos bo'lgan talablarning ro'yobini nutqqa xos xususiyatlarni to'la o'zlashtirmasdan turib anglash mushkul.

Nutqiy faoliyat, nutqiy ko'nikma, nutqiy malaka ana shularni taqazo etadiki, nutqiy madaniyat va nutqiy texnikani to'la egallamasdan notiqik sharafiga erishish mumkin emas. Ikir-chikirdan muhim fikrga o'ta bilish, lo'nda ibora, ta'sirchanlik va ehtiros, jo'shqinlik, o'zidagi hissiyotni o'zgaga o'tkaza bilish, kuzatuvchanlik, ziyraklik, omma e'tiborini bir maromda ushlab turish, vaziyatga mos va xos so'z topa bilish kabi talablar notiq nutqini muzayyan etadi.

To'g'ri ta'kidlanganidek, gap so'zning soni yoki sifatida emas, balki ularni bilish va o'z o'rnida qo'llay olishdadir. Demak, so'z tuzadi, so'z buzadi, omonlik ham so'z bilan, yomonlik ham so'z bilan, olqish ham so'zdan, qarg'ish

ham soʻzdan. Bu haqda koʻp ham xoʻp yozilgan. Biron mutafakkir, adib yoʻqki, soʻz haqida, uning harakatdagi ifodasi nutq haqida fikr bildirmagan boʻlsin.

Soʻzning hosiyati shular bilan cheklanmaydi. Uning imkoniyat qirralarini yetuk notiqlar kashf etadilar. Har bir narsaning xususiyatlari uning toʻla taʼrifini berishi uchundir.

Maʼlumki, nutqning, fikrning asosini tashkil qiladigan birlik bu soʻzdir. Soʻz orqali nutq va fikr oydinlashadi. Soʻzlarning harakterini yaxshi bilgan notiq hech qachon qiynalmaydi. Har qanday soʻzning hosiyati esa uni oʻz oʻrnida, toʻgʻri ishlata olish bilan belgilanadi. Soʻz tovush hamda maʼnoning dialektik birligidan iboratligini bilgan notiq uni ifodalashda quyidagi bosqichlarni eʼtiborda tutishi lozim:

1. *Topish.*

2. *Tanlash.*

3. *Qoʻllash (aytish yoki yozish).*

Demak, nutqimizdagi har bir soʻz tinglovchiga yoki oʻquvchiga kontekstga muvofiq ana shu bosqichlar orqali yetib boradi. Har qanday maʼlumot, fikr, hissiyot ana shu bosqichli jarayonlar orqali anglashiladi.

Ogʻzaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon. Ogʻzaki nutq qoʻllanish usuliga koʻra ikki xil boʻladi: oddiy soʻzlashuv nutqi va adabiy soʻzlashuv nutqi. Oddiy soʻzlashuv nutqi kundalik hayotimizda, oʻzaro muomala jarayonida ishlatilsa, adabiy soʻzlashuv nutqi muayyan shaxslar doirasida tilning meʼyoriy mezonlarini qoʻllash orqali roʻyobga chiqadi.

Ogʻzaki va yozma nutqning oʻzaro bogʻliqligi ularning shakllanish jarayonidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida ham muhimdir. Davraga chiquvchi notiq demoqchi boʻlgan maqsadini toʻla boʻlmasa-da, xomaki tarhini qogozga tushirib rejalalashtiradi. Nimadan nimaga oʻtish, qancha toʻxtalish, nimalarni aytish yoki aytmasslik haqidagi chizgilar notiq, soʻzlayotgan paytda ham uning koʻz oldida xuddi qogʻozdagidek xayoliy suvrati namoyon boʻlib turadi. Aks holda nutq meʼyori buzilib, vaqt choʻzilib ketishi, auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin. Qoʻpol aytganda, notiq oʻzining fikr tizginini

jilovlay olmasdan talmovsirab qolishi mumkin. Yuqorida keltirilgan ihtibosning davomida xuddi shunday ibratomuz fikrlarni o'qiymiz: «Notiqning fikru o'ylari, qalb kechinmalari yozma nutq jarayonida rosa ishlanadi, pishib mumtoz darajaga yetadi. So'ng og'zaki nutqda jamol ko'rsatadi. Demak, voiz islomiy e'tiqod bilan bog'liq masalalarni yetkazuvchi notiq bo'lgan. Hozirda ham voizlikning ba'zi ko'rinishlari ko'zga tashlanmoqda. Ma'raka va marosimlarda, xususan, amri ma'ruflarda voizlar zamon bilan bog'lagan holda ota-ona va farzand burchlari, farzlari, iymon-e'tiqod haqida mazmundor suhbatlar uyushtiradilar. Istiqlool g'oyalari, yangi davr unutilib ketayotgan san'atlarning qayta tiklabgina qolmay, milliy istiqlool g'oyasining mustaqkamligini targibu tashviq etishda ham qo'l kelishini ko'satmoqda. Va'zxonlik davrga mos va xos tarzda milliy libos kiyib boradi.

Xullas, har bir kasb-hunarning o'z xosiyati, mohiyati, talab-taqozolari bo'lganidek, unga amal qiluvchilarning fe'l-atvorlari ham turlicha bo'ladi. Voizlik o'z davrida o'z vazifasini ado eta olgan san'atlardan. Muhammad G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, «Va'z aytishning ma'no-mohiyati — banda oxiratni eslab Alloh huzurida o'zining ongsiz ekanligini sezmogi, o'tgan umrining benaf ishlar bilan hayf ketgani va kelgusida (qiyomatda) nechog'lik mashaqqatlar kutayotganini» anglatishdan iborat. Agar voizlik shu bilan cheklanadi desak, uning vazifasini biroz toraytirgan bo'lamiz. Har davrning o'z g'oyalari va shakllari bo'ladi. Inson kamolotida diniy va dunyoviy ta'limotning o'z ta'siri bo'lar ekan, voizlik ham yangicha ko'rinishda yashashga haqli.

Demak, qiroatxonlikda nazmiy asarlarni o'qishda vazn talablarini bilish hamda amal qilish muhimdir.

Aniqrog'i, aruz vaznidagi asarlarni o'ziga xos o'qish qoidalari bor. Bu esa barmoq vazni yoki erkin vazndan keskin farq qiladi. Unli tovushlarning cho'ziq qisqaligiga asoslangan izchillik, musiqiylik aruz vazni tabiatini belgilashini yaxshi bilasiz. Hozirda qiroatxonlikning bir necha ko'rinishlari ta'lim tizimi qo'llaniladi. Nazmiy hamda nasriy matnlarni o'qish, ayni paytda adiblarning nomlari bilan

bog'liq bo'lgan adabiy o'qishlar ham bor. Deylik, navoiyxonlik, bedilxonlik, ogahiyxonlik, mashrabxonlik, furqatxonlik va hokazo.

Ularda nomi qayd qilingan adibning ijodidan namunalar o'qiladi. Asarlar tahlil etilib, tushuntiriladi. Ifodali o'qish mahoratini egallaganlar rag'batlantiriladi.

Shuningdek, mumtoz she'riyat janrlarining nomlari bilan bog'langan qiroatxonliklar bor. Bular g'azalxonlik, masnaviyxonlik, hikmatxonlik, ruboiyxonlik, qit'axonlik, fardxonlik va hokazo.

Nutq madaniyati notiqlik bilan bevosita aloqador bo'lsa ham, bular bitta tushuncha emas. San'at ma'nosidagi notiqlik nutq madaniyatining eng yuqori nutqtasidan boshlanadi. Xalq orasida so'zga chechan, gapni do'ndiradigan kishilar bor. Ularda notiqlikning uchqunlari borligini inkor etib bo'lmaydi. Ular so'zga, nazm va askiyaga zavqi bor odamlardir. Muayyan ma'rifiy maqsad yoki mavzuni umumlashtirish, kompozitsion yaxlitlikda taqdim eta olish salohiyati ularda unchalik shakllanmagan bo'ladi. Lekin, notiqlik san'atining nazariy asoslarini puxta o'rganib malaka va tajribaga ega bo'lishsa, ulardan yaxshi notiq chiqishiga

shubha yo'q. Hozirda nutq va notiqlik tushunchalari o'zlarining asliy ma'nosida qo'llanilmayapti. Har qanday so'zlovchi, minbarga chihuvchiga notiq, ma'ruzani «notiqlik namunasi» deb atash rasm bo'lmoqda. So'zning o'z o'rnini, vazni, bo'y-basti, o'lchovi, hajmi, hidi bor. Uni didi borlarga anglashadi.

Shunday ekan, ma'lum sharoitlarda so'zning, nutqning o'z egasi bo'ladi. E'tibor qiling. Katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, nuroniy kishilar orasida yosh notiq "umr mazmuni" mavzuida suhbat uyushtirsa, yoki bolalarga tajribali, keksa notiq "Oila, uy-ro'zg'or va turmush muammolari" mavzuida ma'ruza o'qisa qay darajada kulgili va yarashiqsiz bo'ladi.

Qay zaminda bo'lmasin, insoniyatning ma'naviy-ruhiy ehtiyojini qondiruvchi, ma'rifiy bilim beruvchi notiqlik san'atiga xos shakl va uslublar yashovchandir. Aristotel birinchilardan bo'lib, ana shu haqiqatni ilm, amal va go'zallik qonunlari bilan uyg'un ifoda eta olgandir.

Til, so'z, nutq, tovush, harf singari lisoniy birliklarni his qilish, uning ta'sir kuchini anglash va anglatish, ularni g'oyaviy maqsad nuqtai nazaridan mohirona

qo'llash doimo adiblarning diqqat markazida turgan. Biron so'z san'atkori yo'qki, til, nutqqa e'tibor qilmagan bo'lsin.

Hatto, diniy ta'limotda dunyoning yaralishi va tugashini ham so'z bilan bog'lash mavjud. Parvardigorning «Bo'l» degan xitobi bilan o'n sakkiz ming olam yaralgan. Uning kunfayakun bo'lishi ham so'z bilan deyiladi. Demak, so'z — ilohiy ne'mat. Uni muqaddas tutish, kalom ahlini e'zozlash azaldan mavjud.

Har qanday go'zal, jimjimador, lekin mantiqdan xoli bo'lgan nutqning mohiyati bo'lmaydi. Chunki, nutqning qudrati va ta'siri ham aslida uning mantiqi bilan belgilanadi. Notiq nutqining mantiqiy qudratini ta'min etuvchi omillar nutq sohibining bilimi, saviyasi, dunyoqarashi, tajribasi, malakasi bilan uyg'unlashadi.

O'tmishda o'z vazifasini o'tab kelgan, turli g'oya va maslaklarga xizmat qilgan notiqlik san'ati bugun ham, kelajakda ham ahamiyatini yuqotmaydi. Insoniyatda anglash va anglatishga ehtiyoj bor ekanki, u yashayveradi. Faqat uni ongli ravishda, ezgulik, bunyodkor g'oyalarni tashviq etishga safarbar etish zarur. Endilikda uning o'tkir «nazar»ini milliy istiqlol g'oyasining hayotbaxsh mohiyatini keng ommaga tushuntirishga qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т. « Ўзбекистон », 1992.
2. Notiqlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida. To'rtinchi hokimiyat. Т. «O'zbekiston», 1998.
3. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'grisida. To'rtinchi hokimiyat. Т. «O'zbekiston», 1998.
4. Ommaviy axborot vositalari to'grisida. To'rtinchi hokimiyat. Т. «O'zbekiston», 1998.
5. И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқлоли ва тараққиёти йўли. Т. « Ўзбекистон », 1992.
6. И.А.Каримов. Ўзбекистон — келажаги буюк давлат. Т. « Ўзбекистон », 1992.
7. И.А.Каримов. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Т. « Ўзбекистон », 1994.
8. I.A Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Т. «O'zbekiston», 1997.
9. N A Karimov. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga», «O'zbekiston matbuoti» №5, 97, 2 b.
10. N A Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Т. «O'zbekiston», 1999.
11. Алишер Навоий. “Махбуб ул-қулуб”. Иноят Махсумов насрий баёни. Ё. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т. 1983
12. Alimasov Viktor. Falsafa yohud fikrlash lazzati. Т. «Ma'naviyat», 2001.
13. Baxtiyor Omon. «Nutq nufuzi». Т. «Ma'naviyat», 2001.
14. Емельянова Е. Что нужно знать диктору. М. 1969.
15. Жуманиёзов Р.М. «Халқ ижоди-ҳақ ижод». Т. «Ўзбекистон», 1994.
16. Jumaniyozov P.M. Yangiliklar yozish va tahrir qilish. ToshDU. 2000.
17. Зарва М.В Слово в эфире. М. “Искусство”. 1977.
18. Искусство разговаривать и получать информацию. М. 1993.
19. Inomxo'jayev S. O'tmish sharq notiqligi. «O'zbekiston», 1972.

20. Inomxujaev S Notqlik san'ati asoslari. «Uqituvchi», T. 1982.
21. Kaykovus. Kobusnoma. «Meros», T. 1992.
22. Karimova E «Targ'ibotning psixologik uslublari» T. «Ma'naviyat» 2001.
23. Maqsudov N M Til. «Yozuvchi», T., 1998.
24. Maxmudov Sattor. O'zbekning gapi qiziq. «Fan», 1994.
25. Meliboev A «Nimadan boshlamoq kerak?», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» 1998 y. 16-oktyabr.
26. Муратов С.А. Этический словарь тележурналиста М.94.
27. Mustahil O'zbekiston jurvalistikasi: tajriba va izlanishlar, T. «Universitet», 1996.
28. Muminov F.A.. Notqika ijtimoiy institut sifatida. T. «O'zbekiston», 1998.
29. Mo'minov F.A Notqlik samaradorligi fa ni bo'yicha ma'ruzalar to'plami. ToshDU. 1994
30. Nizomov F. YAngilanish an'anasi. T. «Ma'naviyat», 1998.
31. Nusratvillo Atoullloh o'g'li Jumaxuja. Istiqlol va ona tilimiz «SHarq», 1998.
32. Orinov K., Obidova M. «Ifodali o'qish», «O'qituvchi», 1994.

Internet ma'lumotlari

1. www.college.ru
2. www.diser.rsl.ru
3. www.referat.ru
4. www.referet.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.ziyo.uz
7. www.ziyo.edu.ru
8. www.ziyo.net.uz